2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 8 (1334), 2025-yil 12-yanvar, yakshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

ELEKTROTEXNIKA SANOATI: INNOVATSIYALARNI O‘RGANIB, BOZORBOP MAHSULOTLAR YARATISHGA E’TIBOR QARATILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 11-yanvar kuni elektrotexnika sohasidagi natijalar va galdagi vazifalarga oid taqdimot bilan tanishdi.

Bu sohaning sanoatdagi ulushi 3,5 foiz, tovarlar eksportida 10 foizni tashkil etadi. O‘tgan yili 31 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan, 1 milliard 300 million dollar eksport qilingan. 516 million dollar investitsiya o‘zlashtirilib, 85 ta yangi korxona ishga tushgan. Bu sohada 27 mingdan ziyod yurtdoshimiz ishlamoqda.

O‘tgan yili 5-sentabrda bo‘lgan videoselektor yig‘ilishida sohada natijadorlikni oshirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan edi. Shunga asoslanib, joriy yilda qator vazifalar belgilab olingan.

Taqdimotda “O‘zeltexsanoat” uyushmasi raisi bu yil hududlarda 4 milliard dollarlik 290 ta yangi loyihani boshlab, 600 million dollar investitsiya o‘zlashtirish, misni qayta ishlash darajasini 75 foizga yetkazish rejalarini aytdi.

Bunda mahalliylashtirish dasturlaridan foydalanish muhim. Masalan, bu yil mamlakatimizda 75 milliard dollarlik investitsiya loyihalari amalga oshiriladi. Shuning 28 milliard dollarini mahalliy mahsulotlar hisobidan qoplash mumkin.

Elektrotexnika klasterini kengaytirish uchun Ohangaronda qo‘shimcha 200 gektar, Farg‘onada 10 gektar, Urganchda 4 gektar yer ajratildi. 181 milliard so‘m evaziga infratuzilma qurildi.

Endi tadbirkorlarga texnoparklar hududida tayyor bino qurib, elektrotexnika va turdosh soha korxonalariga sotishga ruxsat berish mo‘ljallanmoqda. Yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygan tadbirkorlarni uch yil muddatga foyda va mol-mulk solig‘idan ozod qilish taklif etilmoqda.

Bu, jumladan, Ohangaron mis klasterida 68 million dollarlik, Qashqadaryo, Farg‘ona va Urganchda 30 million dollarlik yangi loyihalarga imkoniyat ochadi.

Mahsulotlar sotilishi uchun vazirlik va sanoat tarmoqlari kesimida 15 trillion so‘mlik kafolatli bozor ham tashkil qilinmoqda. Ijtimoiy obyektlar uchun qayta tiklanuvchi energiya qurilmalarini mahalliy korxonalardan xarid qilish tartibi ishlab chiqilmoqda.

Davlatimiz rahbari bu soha “yashil” iqtisodiyot uchun, barqaror rivojlanish uchun juda muhim ekanini ta’kidladi. Shu bois, joylardagi barcha imkoniyatlarni ishga solish, tadbirkorlarga infratuzilma, moliya va xomashyo jihatidan qo‘shimcha sharoitlar yaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Mutasaddilar bularning evaziga eksportni yiliga 3 milliard dollarga, ishlab chiqarish hajmini 50 trillion so‘mga yetkazish imkoniyati borligini qayd etdi.

Innovatsiyalarni o‘rganib, bozorbop mahsulotlar yaratish, malakali muhandis, texnolog va o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarini tayyorlash masalalariga ham e’tibor qaratildi.

O‘zA

TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI QO‘LLAB-QUVVATLASH SAVDO-IQTISODIY ALOQALAR RIVOJIGA XIZMAT QILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev transport va logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi.

So‘nggi yetti yilda mahalliy tashuvchilarni qo‘llab-quvvatlash natijasida yuk avtomobillari soni 7 karra ko‘payib, 26 mingga yetgan. Ularning xalqaro tashishdagi ulushi esa 35 foizdan 60 foizga oshgan.

Lekin dunyodagi geosiyosiy vaziyat bu sohada qiyinchilik tug‘dirmoqda. G‘arb yo‘nalishida tashish muddati 2 karra, xarajati esa 1,5 barobargacha oshib ketyapti. Ayrim Yevropa mamlakatlari chegaralaridagi o‘tkazish punktlari yopilgan, boshqalarida uzoq navbatlar yuzaga kelgan.

Shu bois, transport-logistika tizimini izchil rivojlantirish va tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish zarurligi ta’kidlandi.

Xususan, xalqaro va mintaqaviy bozorlarga olib chiqadigan muqobil yo‘nalishlar bo‘ylab joylashgan mamlakatlar bilan tranzit yuk tashuvlarni soddalashtirish va erkinlashtirish, chegaralarda undiriladigan yig‘imlarni o‘zaro tenglik asosida kamaytirish yoki bekor qilish choralarini ko‘rish kerak.

Yurtimizda yuk jo‘natuvchi va tashuvchini o‘zaro bog‘laydigan ekspeditorlik xizmatlarining asosiy qismi xorijiy kompaniyalarga to‘g‘ri keladi. Bu sohada mahalliy ekspeditorlarimizni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularning xalqaro yuk tashishdagi xizmatlariga qo‘shilgan qiymat solig‘i olinmaydigan bo‘ldi. Natijada mahalliy korxonalar ulushini 45-50 foizga chiqarish imkoniyati ko‘rsatib o‘tildi.

Shu kabi choralar orqali xalqaro yuk tashish hajmini 2 karra oshirish, transport xizmatlari eksportini kamida 3 milliard dollarga yetkazish vazifasi belgilandi.

O‘zbekiston hududi orqali tranzit tashuvlar hajmini ko‘paytirish ham muhim. Bu borada yaratilayotgan qulayliklar natijasida mamlakatimiz so‘nggi yillarda Jahon bankining logistika bo‘yicha indeksida yuqorilamoqda. Bu tranzit salohiyati bilan birga investitsiya oqimi oshishiga, umuman, savdo-iqtisodiy aloqalar rivojiga xizmat qiladi.

Mutasaddilarga elektron navbat tizimini keng joriy etib, chegaradan o‘tish vaqtini 20 daqiqagacha qisqartirish, transport vositalarini onlayn kuzatish tizimini yo‘lga qo‘yish orqali qo‘shimcha yuk oqimlarini jalb qilish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Yana bir masala — yo‘nalishsiz taksi xizmatlariga tegishli. Ikki yil oldin jismoniy shaxslarga o‘zini o‘zi band qilgan holda taksichilik qilishiga vaqtinchalik ruxsat berilgan edi. Buning natijasida taksichilar soni 6 barobar oshib, 457 mingga yetdi. Shu bois, endi bu tartib doimiy bo‘lishi aytildi.

Taksilarga mijoz topishda qulay axborot xizmatlari bozori shakllandi. Hozirda 151 ta agregator kompaniyalar ish yurityapti va bu yana o‘sib boryapti. Shu bois, agregatorlar faoliyatini tartibga solish, ularning davlat, haydovchi va yo‘lovchilar oldidagi majburiyatini aniq belgilash vazifasi qo‘yildi.

O‘zA

Davlat dasturi loyihasi muhokamada

EKOFAOL FUQARO

USHBU MAQOM QATOR IMTIYOZLAR ESHIGINI OCHADI

Keng jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi va uni tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni loyihasida strategiyaning 5 ta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha 2025-yil uchun amaliy chora-tadbirlar, normativ-huquqiy hujjatlar ro‘yxati va maqsadli ko‘rsatkichlar nazarda tutilmoqda.

O‘ZBEKISTON 2030

Ma’lumki, davlat dasturlari, muhim strategik hujjatlarni ishlab chiqishda fuqarolar, xalqaro ekspertlar, tegishli vazirlik va idoralar mutaxassislari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari takliflarini inobatga olish tizimi hujjatlarni takomillashtirish, xalqchilligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Davlat dasturi loyihasi aholi tanishib chiqishi uchun qulay va ixcham shaklda tayyorlangan. Unda atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot masalalariga asosiy e’tibor qaratilishi bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy, davlat boshqaruvi, sud-huquq, xavfsizlik va tashqi siyosat yo‘nalishlarida 2025-yilga mo‘ljallangan keng ko‘lamli islohotlar ham nazarda tutilgan.

Davomi 2-betda

IZCHIL TASHABBUSLAR

EKOLOGIK OQIBATLARGA QARSHI KURASHISH O‘ZBEKISTONNING ASOSIY MAQSADI

O‘zbekiston barqarorlikning global maqsadlariga moslashish borasida muhim chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Konstitutsiyamizda ekologik huquqlarga, fuqarolarning nafaqat qulay atrof-muhit, balki uning holati to‘g‘risida ishonchli ma’lumot olish huquqiga ega bo‘lishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan.

Bu maqsadda doimiy ravishda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi salomatligini saqlash sohasida qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi, 2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasida o‘rmon xo‘jaligi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyalari sohani rivojlantirishda asosiy dasturilamal bo‘lib, global iqlim o‘zgarishlarining oldini olishda katta ahamiyatga ega.

Davomi 5-betda

Millat fidoyilari

Hazrati Behbudiy kim bo‘lgan?

Qish chillasining o‘ninchi kuni, quyosh taqvimi bo‘yicha 2025-yilning 3-yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan “Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorni hayajon bilan o‘qidim.

Haqrost, Prezident qarorida qayd etilganidek, “Vatanimiz tarixida g‘oyat murakkab va sinovli davr bo‘lgan XX asr boshida maydonga chiqqan Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidlik harakatining asoschisi hisoblanadi. U milliy ozodlik harakatining buyuk namoyandasi sifatida ilm-fan, ta’lim va tarbiya, adabiyot va san’at, matbuot sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg‘or taraqqiyot yutuqlarini o‘zlashtirish orqali xalqimizning ongu tafakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo‘lida o‘z hayotini baxsh etgan fidoyi zotdir”.

Davomi 6-betda

Inson qadri uchun

Inson hamisha umid hamda orzu-havaslar bilan yashaydi. Erkin, tinch va farovon hayot kechirishni istaydi. U qachon qadr topsa, hayotiy manfaatlari ro‘yobga chiqib, chinakam yashash zavqini tuysagina, jamiyat va davlat uyg‘unlikda barqaror rivojlanadi.

O‘ZGARISHLAR FALSAFASI

ISLOHOTLAR XALQIMIZNING BUGUNGI HAYOTI VA ERTANGI ISTIQBOLINI O‘YLAB AMALGA OSHIRILMOQDA

El ko‘nglidagini topish uning qalbini anglash va egallashdan boshlanadi. Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining ilk kunlaridayoq xalqimizning qadr-qimmatini joyiga qo‘yish, uning egilgan qaddini ko‘tarishni maqsad qildi va islohotlarni xalq bilan davlat o‘rtasida ishonch ko‘prigini o‘rnatishdan boshladi.

“Inson qadri uchun” tamoyili asosida har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishi, fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlash, aholi uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil qilish, yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida ulkan amaliy qadamlar qo‘yildi.

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari asosida dastlab Manas qishlog‘ida boshlangan yangilanishlar shukuhi ko‘p o‘tmay, yurtimiz bo‘ylab keng quloch yoydi. Mamlakatda o‘zgarishlar epkini kirib bormagan birorta qishloq yoki mahalla qolmadi.

O‘tgan davrda hayotimizda nimalar ro‘y berdi, degan savolga bugun minglab qishloq, mahallalar qiyofasidagi yangilanishlar, o‘z hayotidan rozi bo‘lib yashayotgan insonlar turmushidagi ijobiy o‘zgarishlar misolida yetarlicha javob aytish mumkin. Bu oxirgi yillarda inson huquq va erkinliklari, xalq manfaatini ta’minlash bo‘yicha yuritilgan kuchli siyosat samarasidir.

Keyingi sakkiz yilda qabul qilingan uchta kompleks taraqqiyot strategiyasi, tegishli yillarga mo‘ljallangan davlat dasturlari asosida inson huquq va erkinliklarini himoyalash, uning rivojlanishi va salohiyatini ro‘yobga chiqarish, aholiga munosib turmush sharoiti yaratish bo‘yicha e’tiborga molik ishlar amalga oshirildi.

Bir paytlar mamlakatda kambag‘allik yopiq mavzu bo‘lib, bu xususida lom-mim deyishga haddimiz sig‘masdi. Bugun esa jamiyatimizda kambag‘allik borligi nafaqat tan olindi, balki uni qisqartirish bo‘yicha aniq tizimli ishlar qilinyapti.

Kambag‘allikni qisqartirish borasida qisqa va uzoq muddatlarga mo‘ljallangan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi, sohaga oid davlat siyosatini yuritish uchun zarur barcha huquqiy-tashkiliy asoslar yaratilgani natijasida yurtimizda kambag‘allik darajasini 2021-yildagi 17 foizdan 2023-yilda 11 foizga kamaytirishga erishildi. Ikki millionga yaqin odam kambag‘allikdan chiqib, doimiy daromad manbaiga, yangi ish o‘rniga ega bo‘ldi. Bu, o‘z navbatida, har bir fuqaro qalbiga yorug‘lik, ertangi kunga sobit ishonch olib kirdi.

Davlatning xalqqa bunday qayishishi, inson manfaati hamma narsadan ustun qo‘yilgani tufayli odamlarning ruhiyatida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Fuqarolarning ijtimoiy faolligi ortdi, siyosiy xabardorlik darajasi ko‘tarildi.

Davomi 3-betda

Davlat dasturi loyihasi muhokamada

Ushbu maqom qator imtiyozlar eshigini ochadi

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

— Davlat dasturi loyihasi 2025-yil 22-yanvarga qadar keng jamoatchilik va ekspertlik muhokamalaridan o‘tkaziladi, — deydi “Taraqqiyot strategiyasi” markazi ijrochi direktori Eldor Tulyakov. — Aholiga qulaylik yaratish maqsadida hujjatning har bir bandiga e’tiroz, taklif yoki munosabatni hech qanday to‘siqlarsiz bildirish imkoni yaratildi. Ya’ni loyihaning har bir bandi bo‘yicha aholi murojaat qilishi mumkin. O‘z kelajagiga befarq bo‘lmagan yurtdoshlarimiz bildirayotgan har bir taklifni qadrlaymiz. Zarur hollarda har bir fikrni qo‘shimcha ravishda asoslantirib, dasturda aks ettirilishi tarafdorimiz. Agar o‘tgan yilgi natijalarga qaraydigan bo‘lsak, 100 ga yaqin konseptual takliflar davlat dasturida o‘z aksini topdi. Mingdan ortiq takliflar esa tuzatish, tahrirlash asosida dasturni qayta ishlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

> **Shu kunlarda davlat dasturi loyihasiga yurtdoshlarimiz tomonidan takliflar bildirilyapti. Ayni maqsadda “Taraqqiyot strategiyasi” markazida ishchi guruh tuzilgan. Takliflar markaz ekspertlari tomonidan tahlil qilinib, kunlik ishchi guruhga taqdim etib borilmoqda. An’anaga ko‘ra, jamoatchilik muhokamalari tugagandan so‘ng necha kishining taklifi o‘tgani haqida ma’lumot taqdim etiladi.**

Shu o‘rinda loyihadagi aholini qiziqtiradigan va e’tiborini tortadigan bir bandga to‘xtalmoqchiman. Ya’ni aholining kundalik hayotiga ekologik tamoyillarni singdirish orqali mamlakatimizda “Ekofaol fuqaro” hayot tarzini keng targ‘ib qilishga qaratilgan “Bir million yashil oila” umummilliy harakatini yo‘lga qo‘yish. Bu aholi orasida kunlik yurish va yugurishni targ‘ib qilish, “yashil transport”, shu jumladan, velosipedda harakatlanishni rag‘batlantirish, plastik mahsulotlardan foydalanishni kamaytirish, oziq-ovqat isrofgarchiligining oldini olish, suv, gaz va elektr energiyasi resurslaridan oqilona foydalanish kabilarda o‘z aksini topadi.

Albatta, har birimiz atrof-muhit muhofazasiga mas’ulmiz. Yana bir tarafdan, belgilanayotgan vazifalarning inson salomatligi uchun foydasi katta. Shuning uchun bunday aholi davlat tomonidan rag‘batlantiriladi. Masalan, hozirgi taklifga ko‘ra, yuqori ko‘rsatkichlarga erishganlarga “Ekofaol fuqaro” maqomini berish hamda ular uchun davlat xizmatlaridan foydalanishda 10 foiz chegirma va davlat ulushi 50 foizdan yuqori banklarda iste’mol kreditini olishda chegirma taqdim etish nazarda tutilmoqda. Oilaning voyaga yetgan a’zolari “Ekofaol fuqaro” maqomini olganda, ushbu oilaga “yashil oila” maqomi hamda ularga har yili lotereya orqali 14 ta elektromobil berish mo‘ljallanmoqda.

Bu esa “yashil” iqtisodiyot, atrof-muhit muhofazasi, fuqarolar salomatligini oiladan boshlab joriy etishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Buning uchun ma’lum ma’noda davlat fuqarolarni rag‘batlantirishni maqsad qilayotgani tahsinga sazovor.

Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilash borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Bu yo‘nalishlarda tegishli huquqiy-me’yoriy hujjatlar, konsepsiya va strategiyalar ishlab chiqildi.

Xususan, “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi, mamlakatimiz tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining “Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e’lon qilish to‘g‘risida”gi maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Eng muhimi, O‘zbekiston xalqaro hamjamiyat oldida olgan majburiyatlarini qat’iyat bilan amalga oshirib kelmoqda. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi ham BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga to‘liq hamohang tarzda ishlab chiqilgani buning amaldagi isbotidir.

> **Farmon loyihasida keltirilgan BMT Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risida hadli konvensiyasining Kioto protokoli va Parij bitimi doirasida mamlakatning global hamjamiyat oldida olgan majburiyatlarini bajarishda tarmoq va sohalarning uyg‘un “yashil transformatsiya”sini amalga oshirish masalasi ham O‘zbekiston islohotlarni jahon standartlariga moslashtirayotganini bildiradi.**

Bir so‘z bilan aytganda, davlat dasturi loyihasiga berilayotgan taklif va munosabatlar “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan keng ko‘lamli maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o‘zgarishlarga erishish bo‘yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirishga xizmat qilishi, ertangi kunimiz, farzandlarimiz kamoli uchun juda muhim.

Tadbirkorlik

KICHIK REJALARDAN KATTA MAQSADLARGA O‘TADIGAN DAVR KELDI

Odinaxon OTAXONOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda aholi o‘rtasida va davlat idoralarida tadbirkorlarga munosabat mazmun-mohiyati butunlay o‘zgardi. Ishbilarmonlik muhiti tubdan yaxshilanib, tadbirkorlik subyektlari, biznes vakillari yuzaga kelayotgan ayrim muammolarni ortiqcha sarsongarchiliklarsiz va qog‘ozbozliksiz tezkor hal etmoqda.

Soha vakillari bilan ishlaydigan, haq-huquqlari va manfaatlarini himoya qiladigan Biznes ombudsman, Bosh vazir qabulxonasi singari yangi institutlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgani bois, yangi subyektlar keskin ko‘payib, avvaldan ishlayotganlari faoliyatini kengaytirdi. Natijada minglab ishsiz yoshlar, xotin-qizlar biznesini yo‘lga qo‘ydi, yaxshi daromad manbaiga ega bo‘ldi.

Yurtimizda har yili ochilayotgan ish o‘rinlarining 90 foizi xususiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelishi, hozir ushbu tarmoqda 5 milliondan ziyod aholi, ayniqsa, yoshlar mehnat qilayotgani sohaning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hayotimizdagi o‘rni ham ortib borayotganini ko‘rsatadi. Qisqasi, bugun tadbirkorlar zamoni. Ular samarali faoliyat yuritishi uchun yurtimizda barcha qulaylik, imkoniyatlar mavjud.

Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida bugun 100 dan ortiq ishchisi bor korxonalar 3 mingga yaqinlashib, ulardagi ish o‘rni bir yilda 440 mingga ko‘paydi. Ushbu korxonalardagi ishchilar soni 1,7 millionga yetdi. Bularning barchasi iqtisodiyotimiz rivoji, xalqimiz farovonligiga xizmat qilayotir.

E’tiborli jihati, mamlakatimizda iqtisodiy-ijtimoiy sohani isloh etish, erkin tadbirkorlik faoliyatini qaror toptirish borasidagi islohotlar mantiqiy izchillikda amalga oshirib kelinmoqda. 2024-yilda Tadbirkorlar kuni munosabati bilan ilg‘or biznes vakillaridan 37 nafari orden va medallar bilan, 104 nafari “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan tadbirkor” faxriy unvonini ta’sis etish to‘g‘risida”gi qonun tadbirkorlar uchun yana bir rag‘batlantiruvchi omil bo‘ldi.

Shu bilan birga, byudjet va soliq siyosati samaradorligini oshirish maqsadida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Soliq solish tizimi soddalashtirilib, ishbilarmonlik va investitsiya faolligini oshirishga yordam beruvchi korxonalar hamda jismoniy shaxslar uchun soliq yuki kamaytirildi.

Davlatimiz rahbarining shaxsan o‘zi tadbirkorlar bilan uchrashib, ularning muammolarini tinglayotgani, taklif va tavsiyalarini eshitayotgani odamlarda tadbirkorlikka katta ishonch uyg‘otdi. Ochiq muloqot natijasida tadbirkorlarni qiynab kelgan qator masalalarga yechim topildi, ko‘plab yangi tashabbuslar e’lon qilindi. Bu, o‘z navbatida, kichik va o‘rta biznes uchun moliyaviy resurslarni ko‘paytirish, biznesni infratuzilma bilan ta’minlash, ichki bozorda teng raqobat muhitiga imkon yaratdi. Endi odamlar avvalgidek bankma-bank kredit olish uchun sarson-sargardon bo‘lib yurmaydi. Ularda biznesni boshlash uchun xohish bo‘lsa, bas.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta’minlashi, tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga hamda o‘z faoliyati yo‘nalishlarini mustaqil tanlashga haqli ekani belgilab qo‘yildi. Bugun Bosh qonunimizda o‘z aksini topgan normalar to‘liq ro‘yobga chiqarilmoqda. Binobarin, faqat tadbirkorlik rivojlangan davlatda sifatli ta’lim, malakali tibbiyot, farovon hayot hamda ertangi kunga ishonch bo‘ladi. Eng muhimi, biznesni rivojlantirish orqali qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratiladi, kambag‘allik qisqaradi, aholi daromadi ko‘payadi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan Tadbirkorlik kodeksi esa ushbu islohotlarning mantiqiy davomi sifatida ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilash, tadbirkorlarning erkin va samarali faoliyat yuritishi uchun muhim huquqiy asos bo‘ldi. Chunki tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq 5000 ga yaqin normativ-huquqiy hujjat mavjud bo‘lib, ular nihoyatda ko‘pligi zarur bo‘lgan qonunchilik hujjatini tez topish va amalda qo‘llashda qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotgandi. Ushbu hujjat bu boradagi barcha murakkablikka chek qo‘yadi, tadbirkorlar tomonidan yagona kodeksga murojaat qilib, o‘z savollariga javob olish imkonini beradi.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Kodeksda hozir 88 ta faoliyat turi bilan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar mumkin bo‘lmagan faoliyat turlarini belgilagan holda qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi belgilandi. Tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning chegaralari hamda shakllari mustahkamlandi.

Prezidentimizning 2024-yil 20-dekabr kuni mamlakatimizdagi faol tadbirkorlar bilan videoselektor shaklida o‘tkazgan muloqotida sohani qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yil yakunlari va 2025-yilga mo‘ljallangan rejalar muhokama qilinib, sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida tuzilgan Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha jamoatchilik kengashi davlat va tadbirkorlar o‘rtasida ko‘prik bo‘lib, aniq takliflarni bildirib kelmoqda. 2024-yilning o‘zida tadbirkorlar faoliyati uchun g‘oyat muhim 5 ta qonun, 101 ta farmon va qaror qabul qilingani mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 27-dekabrdagi “Tadbirkorlar uchun teng sharoitlar va adolatli raqobat muhitini ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni yurtimizda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgani bilan ahamiyatli bo‘ldi. Zero, unga ko‘ra, qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘i stavkalari 2028-yil 1-yanvargacha oshirilmasligi belgilandi.

Joriy yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvargacha tikuv-trikotaj, poyabzal va charm-attorlik sanoati yo‘nalishlarida ishlab chiqarish faoliyati yuritayotgan va belgilangan shartlarga javob beradigan tadbirkorlar uchun foyda solig‘i va xodimlari uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkasi 1 foiz etib belgilandi. Bu yil 1-apreldan daromadidan qat’i nazar, farmatsevtika mahsulotlari savdosi bilan shug‘ullanuvchi yoki tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar QQS to‘lovchilar deb e’tirof etiladi.

Tadbirkorlarga tashqi moliya bozorlariga chiqishga ko‘maklashish markazi tashkil qilingani ayni muddao bo‘ldi. Boisi, ushbu markaz tadbirkorlarga xalqaro moliya institutlari, xorijiy moliya tashkilotlari va boshqa kredit tashkilotlaridan davlat kafolatisiz mablag‘lar jalb qilish bo‘yicha konsalting xizmati yo‘lga qo‘yiladi. Markazda har yili 100 ta tadbirkorlik subyektiga xizmat ko‘rsatiladi.

2025-yilda aylanma mablag‘larni to‘ldirishga ajratiladigan kreditlar uchun “Savdoni rivojlantirish kompaniyasi” AJga 100 million dollar miqdorida qo‘shimcha mablag‘ ajratiladi.

Shuningdek, 2025-yil 1-yanvardan bojxona chegarasidan olib chiqiladigan har bir kilogramm paxta ip-kalavasi uchun yig‘im uning eksport narxidan 2 foiz miqdorda, biroq 0,05 AQSH dollaridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda, bojxona chegarasidan olib chiqiladigan har bir kilogramm trikotaj mato uchun esa yig‘im uning eksport narxidan 1 foiz miqdorda o‘rnatilishi belgilandi.

Bugun yangi O‘zbekistonda tadbirkorlik qiladigan zamon keldi deya baralla ayta olamiz. Hozir davlat — tadbirkorga, tadbirkor esa xalqqa madadkor bo‘lmoqda. Bu, o‘z navbatida, aholi bandligini oshirish, odamlarning yashash sharoitlarini yaxshilash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va kambag‘allikni qisqartirishga zamin yaratyapti. Jarayonlarning muvaffaqiyatli va yuqori samarali bo‘lishida mazkur farmon mustahkam huquqiy asos bo‘ladi.

Yosh tadbirkor

BIZNES TAJRIBA TO‘PLASH VA TAVAKKALDAN BOSHLANADI

Oddiy sotuvchi yigitning bir kun kelib, katta tadbirkor bo‘lishi boshqalarning xayoliga kelmasa-da, lekin o‘zi shu maqsad sari doim intilib yashadi. Bahrom maktabni tugatib, mahallasidan biror tayinli ish topolmagach, poytaxtga yo‘l olganida, ota-onasi bir oz xavotirda edi. Kimgadir shogird tushdi, yana biroviga yordamchi bo‘ldi. Oxiri bir kishining maslahati bilan sotuvchilikni boshladi.

Boshida savdodan, ko‘p pul topaman deb o‘ylagandi. Ammo bu oson emasdi. Shu sabab dastlab ishi bir oz zerikarli bo‘ldi. Lekin sabrli bo‘lishga intildi. Olib kelgan mahsulotlaridan asta-sekin foyda ko‘ra boshlagach, eplasa yaxshi daromad topish mumkinligini angladi. U paytlar Bahrom tengdoshlarining xayoliga kelmagan vanna, rakovina kabi uy-ro‘zg‘or buyumlarini sotishni boshlagandi.

Oradan uch-to‘rt yil o‘tib, savdo ishlarida ancha tajribasi oshib qoldi. Ammo uyidan olisda ishlashning o‘zi bo‘lmasdi. Ancha vaqtgacha qishlog‘ida shu mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish rejasida yurgandi. Buning uchun Toshkent shahridagi ayrim tadbirkorlardan ish o‘rganishga harakat qildi. Yaxshi tayyorgarlik ko‘rgach, Qamashi tumanidagi Qiziltepa qishlog‘ida loyihani amalga oshirishga kirishdi. Tuman hokimligi ham uning tashabbusini qo‘llab-quvvatladi.

Eski, qarovsiz binoni ijaraga olib, ozroq ta’mirlagan holda dastlab santexnika mahsulotlari ishlab chiqarishni boshlab yubordi. Boshida unchalik oson kechmadi. Kerakli sharoitlarni yaratib olishning o‘zi bo‘lmasdi. Shu sabab astoydil ishga kirishib, ortga qaytmaslikka ahd qildi.

— Ilk harakatni 2018-yilda boshlagandim, — deydi yosh tadbirkor Bahrom Toshtemirov. — U paytda viloyatimizda, adashmasam, bu yo‘nalishda biror kishi ishlamasdi. Tavakkal qilib, harakatni boshlab yubordim. Lekin ko‘pchilik bu mahsulotning bozorini topish mushkul ekanini aytib, yo‘ldan qaytarishga harakat qildi. Aynan santexnika mahsulotlari savdosida tajribam yetarli bo‘lgani bois, bu borada hech xavotirlanganim yo‘q. Ikki-uch kishi bo‘lsa-da, mahsulot tayyorlay boshladik. Dastlabki vaqtlarda ayrimlar chekka bir hududda shunday mahsulot ishlab chiqarilayotganiga shubha bilan qaradi. Mahsulotlarni jiddiy tekshirib ko‘rgan paytlari ham bo‘ldi. Buyurtma berishga ikkilanib, boshqa joydan qidirishdi. Baribir boshlagan ishimizdan ortga chekinmadik. Tuman hokimligi ham bu borada bizni qo‘llab turdi. Asta-sekin o‘z xaridorlarimizga ega bo‘lishni boshladik.

Yosh ishbilarmon keyinchalik “Ideal polimer plast” mas’uliyati cheklangan jamiyatini ta’sis etib, yaqin atrofdagi qurilish korxonalaridan buyurtmalarni qabul qilishni boshlab yubordi. Ish hajmi ortib borishiga qarab ishchilar safi ham ko‘paydi. Boshida ular uch kishi bo‘lib, keyinchalik o‘n nafarga yetdi.

— Bugun yurtimizda tadbirkorlik yo‘nalishi uchun keng yo‘l ochilgan, — deydi korxona ish yurituvchisi Mahmadqobil Norqobilov. — Ilgari turli tekshiruvlar, qog‘ozbozlik charchatib yuborardi. Farzandlarim shu ishni boshlaganida menda ham anchagina hadik bor edi. Biror kishi kelib bezovta qilaversa, ishlashga yo‘l bermasa, degan o‘yda edim. Bahrom to‘ng‘ich farzandim. Mendagi bezovtalikni his qilib, bugun zamon boshqacha ekanini, to‘g‘ri ishlagan kishining yo‘liga hech kim g‘ov bo‘lmasligini aytganida ham unchalik ko‘nglim joyiga tushmagandi. Shukrki, men o‘ylaganimdek bo‘lib chiqmadi. Aksincha, tuman, viloyat hokimi kelib, ishimizdan mamnun bo‘ldi. Kerakli maslahatlarini, yordamini ayashmayapti. Rahmat aytib ketishadi. Biror muammo paydo bo‘ladigan bo‘lsa, birdaniga hal qilishadi. Shunday zamonda ishlamay bo‘ladimi? O‘zim nafaqaga chiqqan bo‘lsam-da, har kuni shu yerdaman. Bularni doim halol mehnat qilishga undab kelaman. Kam bo‘layotganimiz yo‘q. Oilamiz bilan bandmiz.

Yosh tadbirkorga bir paytlar foydalanish uchun berilgan sobiq xo‘jalikning eski omborxonasi keyinchalik qayta ta’mirlanib, zamonaviy korxona shakliga keltirildi. Yetarli sharoitlar qilinib, yangi ish o‘rinlari yaratildi. Imkoniyat bor joyda barchasi yaxshi bo‘lgani sabab ishlab chiqarish hajmi yanada orta boshladi. Xususan, turli xil va hajmdagi vannalar, rakovinalarga qiziquvchilar nafaqat Qamashi, balki viloyatning boshqa tumanlaridan ham kela boshladi.

— Oldiniga oyiga 100 dan ziyod vanna ishlab chiqarib kelayotgan bo‘lsak, keyinchalik bu uch barobar oshdi, — deydi B.Toshtemirov. — Shunga yarasha ish o‘rni yaratdik. Hozir korxonamizda 40 kishi ishlaydi. Bundan tashqari, Toshkent shahrida ham filialimizni tashkil etganmiz. Savdo shoxobchalarimiz mavjud. Boshqa viloyatlarga ham mahsulot yetkazib bermoqdamiz. Asosan, ikki xil, ya’ni og‘ir va yengil turdagi vannalar tayyorlashni yo‘lga qo‘yganmiz. Og‘ir turdagisi uchun asosan, Kitob tumani tog‘ toshlaridan ajratib olingan qumdan va boshqa qazilmalardan foydalanamiz. Yengili uchun ko‘proq xomashyoni chetdan xarid qilib kelamiz. Imkon darajasida sifatli buyumlar tayyorlashga e’tibor qaratganmiz. Shu sabab xaridorlarimizning qiziqishi doimo yuqori.

Ayni paytda yosh tadbirkor yangi loyiha ustida ishlamoqda. Joriy yildan boshlab qo‘shimcha ravishda mebel sexini ishga tushirishni rejalashtirgan. Shu joyning o‘zida ishlab chiqariladigan turli mebellar buyurtmalar asosida yetkazib beriladi. Shuningdek, yangi sexda qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratiladi.

Korxona mutasaddilari mahsulotlarini xorij bozorlariga olib chiqishni maqsad qilgan. Buning uchun esa barcha imkoniyatlar yetarli. Demak, yaqin vaqtlar oralig‘ida Qamashining chekka qishlog‘idagi santexnika buyumlari chet davlatda o‘z xaridorlariga ega bo‘ladi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Inson qadri uchun

O‘ZGARISHLAR FALSAFASI

ISLOHOTLAR XALQIMIZNING BUGUNGI HAYOTI VA ERTANGI ISTIQBOLINI O‘YLAB AMALGA OSHIRILMOQDA

Salohiddin ISOMIDDINOV, jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Avval — inson, keyin — jamiyat va davlat

Inson tafakkuri, hayotdan rozilik darajasi, uning haq-huquqlari so‘zsiz ta’minlanishi har narsadan muhimroq. Mamlakatimizda umumxalq referendumi asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada “inson — jamiyat — davlat” tamoyili ustuvor qo‘yilib, inson huquqlari kafolatlariga oid normalar soni 3,5 barobar ko‘paydi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar ortga qaytmasligining mustahkam huquqiy kafolati bo‘lgan Bosh qonunimizda inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan moddalar hamda ularda belgilab qo‘yilgan normalar nafaqat son, balki mazmun jihatidan ham boyitildi.

Ilk marotaba davlat zimmasiga aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalari hayoti sifatini oshirish, nogironligi bo‘lgan shaxslar jamiyat va davlat hayotida to‘laqonli ishtirok etishi va o‘z huquqlarini amalga oshirishi uchun shart-sharoitlar yaratish choralarini ko‘rish majburiyati yuklandi.

Ayonki, “inson qadri” tushunchasi “ijtimoiy davlat” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu g‘oyaning tub negizida ham avvalo inson qadrini ulug‘lash, insonga xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekani belgilab qo‘yilgani alohida e’tiborga molik.

Bugungi kunda Bosh qonunimiz va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida inson manfaati, uning sha’ni, qadr-qimmatini ulug‘lash, aholining malakali tibbiy xizmatdan foydalanishi, yoshlarning sifatli ta’lim olishi, yurtdoshlarimiz sog‘lom ekologik muhitda yashashi uchun keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Birgina O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi, uning tizimida esa “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etilgani bugun o‘zini to‘la oqlayotganini hammamiz ko‘rib, his qilib turibmiz. Hozir barcha hududlarda ochilgan “Inson” markazlari ijtimoiy xodimlari tomonidan bevosita mahallalarda aholiga 100 dan ortiq turdagi ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatilayotgani buning amaliy ifodasidir.

Inson manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida bugun mavjud barcha masalalar mahallaning o‘zida yechilib, ming-minglab ehtiyojmand fuqarolar jamiyatda o‘z o‘rnini topmoqda. Bu o‘sha hududda istiqomat qilayotgan yoshlar, xotin-qizlar o‘z ish joyiga, yaxshi daromad manbaiga ega bo‘lmoqda, ota-onasi, oilasi bag‘rida farovon hayot kechirmoqda, ko‘plab fuqarolarimiz xorijga ish qidirib ketishdek tashvishli muammodan qutuldi, degani.

Bugun xalqimiz yurtimiz taraqqiyotidagi butunlay yangi davrga qadam qo‘ymoqda. Mamlakatimizda 2030-yilga borib iqtisodiyotimiz hajmini 200 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. E’tibor bering, bu kichik raqam emas. Lekin O‘zbekistondagi jadal islohotlar bu marraga erishish mumkinligini yaqqol ko‘rsatmoqda. Shu orqali aholining turmush darajasi va sifati keskin yaxshilanib, aholi jon boshiga daromad yanada oshadi.

Bularning hammasi yangi O‘zbekistondagi izchil islohotlar, avvalo, insonni e’zozlash, aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borishga qaratilayotganining yaqqol namunasi, desak yanglishmaymiz.

Mubolag‘asiz aytish mumkinki, bugun har bir inson mamlakatimiz rahbarining “Hech kim hech qachon unutmasligi kerak: qanchalik qiyin bo‘lmasin, qancha mablag‘ va imkoniyat talab etilmasin, O‘zbekistonning birorta fuqarosi o‘z holiga tashlab qo‘yilmaydi”, degan qat’iy irodasi va prinsipiga guvoh bo‘lmoqda. Eng muhimi, bunday o‘zgarishlarni o‘z kundalik hayotida ko‘rib, his etayotir.

Uchinchi Renessans yo‘lidagi yorqin mujdalar

Bugun barcha muammolar yechimi, savollar javobi ilm-fan, ta’lim va tarbiyada ekani kundek ravshanlashmoqda. Mamlakat kelajagi, barcha soha va loyihalar muvaffaqiyati esa bilimli, zamonaviy fikrlaydigan yoshlarga bog‘liq.

Ammo bir paytlar muallimning obro‘si, sha’ni, qadri haminqadar baholangani, oylik maoshlar kamligi tufayli aksariyat erkak o‘qituvchilar ishini tashlab ketishga majbur bo‘ldi. Natijada maktab va bolalar ta’lim-tarbiyasi ayol pedagoglar qo‘lida qoldi. Bu esa nafaqat ta’lim sifatiga, balki soha xodimlarining kasbiga munosabatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Prezidentimizning siyosiy irodasi bilan bugun ta’lim sohasida vaziyat tubdan o‘nglandi. Milliy taraqqiyot strategiyamiz asosida yurtimizda ta’lim va tarbiya tizimida tom ma’noda tarixiy ishlar amalga oshirilib, ushbu sohaga bor kuch va katta mablag‘ yo‘naltirildi.

Keng miqyosdagi demokratik o‘zgarishlarni oxirgi sakkiz yilda 5 mingdan ziyod maktabda, joriy yilning o‘zida 608 ta maktabda qurilish va ta’mirlash ishlari bajarilgani, ilk bor 530 ta maktabda inklyuziv ta’lim joriy etilib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bepul ovqatlanishi yo‘lga qo‘yilgani yaqqol tasdiqlaydi.

O‘tgan davrda xususiy sektor rivoji uchun yaratib berilayotgan qulay imkoniyatlar natijasida nodavlat maktablar ulushi 5 foizga yetdi. Ta’lim sifatini yuksaltirish maqsadida pedagoglar malakasini oshirish bo‘yicha yagona va vertikal tizim yaratildi.

Mutlaqo yangicha mazmun va shaklga ega bo‘lgan Prezident maktablari bugun boshlang‘ich ta’limning jahon andozalariga to‘la javob bermoqda. Quvonarlisi, ularning bitiruvchilari dunyoning eng nufuzli universitetlariga kirish uchun grantlar yutib olmoqda.

Yaqin-yaqingacha yoshlar biror til yoki kasb-hunarni o‘rganish uchun qo‘shimcha pul to‘lab repetitorga borishga majbur edi. Bugun ular maktabning o‘zida ikkinchi xorijiy til va kasb-hunar o‘rganishi uchun barcha imkoniyatlar yaratildi. Xususan, 2024-2025 o‘quv yilida 354 ta maktabda 16 mingdan ziyod o‘quvchiga ikkita xorijiy tilni o‘qitish, 289 ta maktabda 40 mingdan ortiq o‘quvchiga kasb-hunar o‘rgatish yo‘lga qo‘yildi.

2023-2024-o‘quv yilida O‘zbekiston maktab o‘quvchilari tomonidan xalqaro fan olimpiadalarida qo‘lga kiritilgan 122 medal ham Uchinchi Renessans yo‘lidagi yorqin mujdalardan biridir. Agar ushbu sohaga bu darajada katta e’tibor qaratilmaganida bu natijalar qayerda edi?!

Xo‘sh, bu kabi ezgulikka yo‘g‘rilgan amallar, xalqchil sa’y-harakatlar kim uchun? Albatta, har bir insonning qayerda yashashi va ishlashidan qat’i nazar, qadr topishi, farovon yashashi, murod-maqsadiga yetishi uchun. Inson qadri ham shu emasmi, aslida?!

Yaqin-yaqingacha kvotalar kamligi, qabul imtihonlarida ayrim to‘siqlar borligi sababli ko‘plab yoshlarimiz o‘qish o‘rniga xorijga ish izlab ketishga majbur bo‘lardi. O‘tgan davrda ushbu tizimda vaziyat tubdan o‘zgardi. Faol islohotlar natijasida yurtimizda 135 ta yangi oliygoh tashkil etilib, umumiy soni 211 taga yetdi. Qamrov darajasi esa 4 barobardan ziyod oshib, 38 foizni tashkil etdi.

Yigit-qizlarimizning oliy ma’lumot olishi uchun imtiyozlar, qabul kvotalari oshirilgani tufayli bugun ularning uzoq yillar orzu qilgan niyatlari, maqsadlari to‘liq ro‘yobga chiqmoqda. Hozir o‘qishga kirish imkoni keng, bir abituriyent bir paytning o‘zida bir necha OTMga hujjat topshirishi va talaba bo‘lishi mumkin. Asosiysi, hech bir yosh davlatimizning e’tibori va g‘amxo‘rligidan chetda qolayotgani yo‘q. Shu emasmi yurtimizda yosh avlodga berilayotgan yuksak e’tibor va keng imkoniyatning yorqin namunasi?!

Salomatlik — eng katta boylik

“Salomatlik — tuman boylik” naqli bejiz aytilmagan. Buning zamirida chuqur ma’no-mazmun, hayotiy saboqlar mujassam, aslida. Zero, salomatlikni har qancha moddiy boylik va mablag‘ evaziga sotib olib bo‘lmaydi. Kasallikni davolashdan ko‘ra uning oldini olish oila uchun ham, davlat uchun ham samarali va foydalidir.

Odam sog‘lom bo‘lmasa, unga ish ham, moddiy ne’matlar ham, hayot quvonchlari ham tatimaydi. Inson har bir kunidan, hayotdan rozi bo‘lib yashashi uchun, avvalo, u har tomonlama sog‘lom bo‘lishi kerak. Shuning uchun mamlakatda aholi salomatligini mustahkamlash, sohani tezkor va samarali, xalqchil tizimga aylantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Masalan, so‘nggi sakkiz yilda sohaga ajratilayotgan mablag‘ hajmi 6 barobar, ya’ni 5,9 trillion so‘mdan 33,5 trillion so‘mga oshirildi. Shu davrda 200 dan ortiq qonun hujjati qabul qilindi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada sohaga oid normalar kuchaytirilgani, O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangani tom ma’noda sohani kompleks huquqiy tartibga solish, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati va samaradorligini oshirishga imkon yaratdi.

Barcha ijtimoiy xizmatlar kabi tibbiyot tizimini xalqimizga yanada yaqin qilish bo‘yicha ko‘rilayotgan aniq choralar tufayli birlamchi va malakali tibbiy xizmatlar aholining keng qatlamlariga kirib bordi. Ayni paytda yuqori texnologik jarrohlik operatsiyalari nafaqat poytaxtimiz va viloyatlar markazida, balki tumanlarda ham muvaffaqiyatli o‘tkazilib, minglab bemorlar o‘z dardiga shifo topmoqda.

Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida donordan olingan suyak ko‘migi o‘zak hujayralari transplantatsiyasi, Kardiologiya markazida esa murakkab endoskopik jarrohlik amaliyoti yo‘lga qo‘yilgani, Milliy tibbiyot markazi shifokorlari tomonidan olis tumanlarda Yevropadan keltirilgan ko‘chma kardiojarrohlik majmuasida murakkab operatsiyalar muvaffaqiyatli o‘tkazilayotgani ushbu sohadagi faol islohotlarning mevasi, desak aslo mubolag‘a emas.

E’tibor bering, yaqin-yaqingacha fuqarolarimiz tibbiyot markazlarida imtiyozli yo‘llanma — order asosida davolanish uchun ne-ne qiyinchiliklarga duch kelardi. Ko‘plab yurtdoshlarimiz order olish uchun mutasaddi vazirliklar eshigi oldida kunlab, oylab navbatda turardi. Orderlar qog‘oz shaklida yuritilib, aksariyat hollarda tanish-bilishchilik asosida berilardi.

Order uchun mablag‘lar respublika tibbiyot markazlariga bemor kelsa-kelmasa, uning miqdori yetarlimi yoki yo‘qmi, bundan qat’i nazar, har yili o‘tkazib kelingani ham achchiq haqiqat. Bugun bularga chek qo‘yildi. Tibbiy yordam uchun yo‘llanma haqiqiy ehtiyoji bor aholiga elektron navbat asosida berilmoqda.

Yana bir misol. Ilgari tug‘ma yurak nuqsoni bor bolaga operatsiya uchun respublika markaziga 3 million so‘m ajratilgan. Qolgan 20-30 million so‘m xarajatni esa ota-onasi ko‘tarishga majbur bo‘lgan. Bugun ushbu operatsiya uchun zarur mablag‘ davlat tomonidan to‘liq qoplanmoqda.

2023-yil 27-mart kuni qabul qilingan “Tibbiyot xodimining qonuniy tibbiy faoliyatiga to‘sqinlik qilganlik uchun javobgarlik belgilanishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun soha vakillariga yuksak e’tibor va ehtiromning yorqin ifodasi bo‘ldi. Ushbu qonun har bir shifokor diliga cho‘g‘ soldi. Ularning ishga munosabatini tubdan o‘zgartirdi, ishonchini oshirdi.

Mazkur hujjat bugungi kunda tibbiyot xodimlari huquqlarini himoya qilishga va ularning kasbiy faoliyatiga turlicha aralashuvlarning oldini olish, shifokorlik kasbi maqomi hamda nufuzini oshirish, fuqarolarga o‘z vaqtida va sifatli tibbiy yordam ko‘rsatilishiga huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘ksik qalblardagi muzlar eridi

Baxtli yashash, munosib turmush kechirishga barcha xalqlar haqli va bu ularning tabiiy huquqidir. Bunga esa mamlakatdagi odilona boshqaruv siyosati bilan erishish mumkin. Insonning o‘z hayotidan rozi bo‘lib umrguzaronlik qilishi uchun ko‘p narsa shart emas, o‘z uyi, tinch xonadoni bo‘lsa yetarli.

Lekin ilgari oddiy, qishloqda yashovchi fuqarolar uchun yer uchastkasini, uy-joyini davlat ro‘yxatidan o‘tkazib, egalik huquqini rasmiylashtirish deyarli imkonsiz edi. Natijada ko‘plab yurtdoshlarimiz o‘z mablag‘iga qurgan uy-joyiga egalik huquqini ololmay, ancha sarson-sargardon bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari o‘z vazifasini bajarishga kirishgan ilk kunlardanoq ushbu og‘riqli masalaga jiddiy e’tibor qaratdi. 2018-yilda Prezident farmoni bilan o‘tkazilgan bir martalik umumdavlat aksiyasi doirasida 621 mingdan ortiq fuqaroning o‘zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasida tegishli ruxsatnomasiz qurilgan uy-joylariga nisbatan egalik huquqi e’tirof etilib, ularga kadastr hujjatlari rasmiylashtirib berildi.

Taassufki, ushbu aksiyadan ko‘pchilik fuqarolarimiz samarali foydalana olmadi. Natijada bugungi kunga qadar 4 millionga yaqin yurtdoshimiz uy-joylarini kadastr qilishda tashkilotma-tashkilot, idorama-idora yurib qiynalayotgandi.

Prezidentimiz 2024-yil 5-avgust kuni imzolagan “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi qonun bilan yer uchastkasiga hamda unda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqni e’tirof qilishning aniq tartibi belgilandi. Bu ko‘plab yurtdoshlarimiz hayotini yorishtirgani, qancha-qancha xonadonlarga quvonch, shodlik va baxt olib kirgani rost.

Ko‘pchilik fuqarolarimiz kutayotgan va millionlab oilalarning hayotiga daxldor bo‘lgan ushbu hujjatning hayotga tatbiq etilishi, shubhasiz, ko‘p vaqt odamlarni qiynab kelgan uy-joyga ega bo‘lish borasidagi dolzarb muammolarni huquqiy jihatdan hal etishga xizmat qiladi.

Inson o‘zi uzoq yillar yashab kelayotgan yurt fuqarosi bo‘lmasa, davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etishi cheklangan bo‘lsa, u baribir o‘zini begonaday his qiladi. So‘nggi yillarda yurtimizda ko‘p vaqt yashab kelayotgan, lekin O‘zbekiston fuqarosi huquqiy maqomiga ega bo‘la olmayotgan yurtdoshlarimiz hayotida ham tom ma’noda unutilmas voqea bo‘ldi.

“O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonunga asosan, 2020-yil 1-apreldan boshlab 1995-yilgacha O‘zbekistonga kelgan va shundan buyon fuqaroligi bo‘lmagan shaxs guvohnomasi asosida doimiy istiqomat qilayotgan hamda O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lish istagini bildirgan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi deb tan olish tartibi joriy etildi.

Yangi O‘zbekistondagi eng muhim o‘zgarishlardan yana biri o‘zboshimchalik bilan xususiy mulk huquqini poymol qilish, ayrim mansabdor shaxslarning adolatsiz va asossiz vajlar bilan ko‘chmas mol-mulkni buzish holatlariga chek qo‘yilgani bo‘ldi. Bosh qonunimizda hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi aks etgani bir necha yillardan buyon jamiyatimizdagi o‘tkir muammolardan biriga aylangan “snos” degan muammoga butunlay barham berdi.

Markaziy Osiyo ruhi

Markaziy Osiyo hatto qadimgi davrlarda ham Osiyoning yuragi sifatida alohida e’tiborga molik hudud bo‘lgan. Zero, bizning nafaqat tariximiz, balki kelajagimiz, hayotiy muhim manfaatlarimiz ham mushtarakdir.

Lekin shunday davrlar bo‘ldiki, qon-qardosh, quda-anda qo‘shni xalqlar hatto to‘yu ma’rakada ham bir-birinikiga bora olmay qoldi. Bu muammolardan xalq zada bo‘ldi, ko‘ngli og‘ridi, norozilik kayfiyati kuchaydi. Azaldan qo‘ni-qo‘shni, qarindosh bo‘lib yashab kelgan, tarixiy ildizlari, tili va dini bir bo‘lgan xalqlarning asriy qarashlariga ham putur yetdi.

Davlatimiz rahbari o‘z faoliyatining ilk kunlaridanoq, birinchi navbatda, qo‘shnilar bilan aloqalarni tubdan yaxshilashga kirishdi. Markaziy Osiyo muammolarini hal etishni tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishi deb e’lon qildi. Shu tariqa yurtimizning Markaziy Osiyo mintaqasi va jahon miqyosidagi siyosiy o‘rni va nufuzi keskin oshdi.

So‘nggi yillardagi siyosat O‘zbekiston uchun ham, mintaqa uchun ham yangi davrni boshlab berdi va mintaqaga “birlik ruhi” qaytdi. Mamlakatimiz yetakchisi tashabbusi bilan yo‘lga qo‘yilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari bugungi kunda muhim hayotiy masalalarni hal qilish va ko‘p qirrali hamkorlikni sifat jihatidan yangi mazmun bilan to‘ldirish borasida samarali platformaga aylanib ulgurdi.

O‘tgan qisqa davrda davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish, jahon iqtisodiy munosabatlariga yanada faol integratsiyalashuv masalalarida ham ijobiy o‘zgarishlarga erishildi. Mintaqa mamlakatlarining umumiy ichki mahsuloti 40 foiz ko‘payib, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida savdo hajmining barqaror o‘sishi kuzatilmoqda. Bu bor-yo‘g‘i keyingi yetti-sakkiz yilda erishilgan natija, xalqaro doiralarda tan olingan e’tirofdir.

Mintaqaviy hamkorlikning yangi modelini shakllantirish yo‘lida birgalikda tashlangan qat’iy qadamlar tufayli 2017-yildan buyon Markaziy Osiyoda taraqqiyot va sheriklikning muhim masalalari bo‘yicha BMT Bosh Assambleyasining 10 dan ortiq rezolyutsiyasi qabul qilinishiga erishildi. O‘zbekiston vakili birinchi marta BMT Inson huquqlari qo‘mitasi a’zosi bo‘ldi. Buni yangi O‘zbekiston solnomasida tarixiy hodisa, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarimizda yillar davomida yig‘ilib qolgan muammolar hal etilgani va chegaralar ochilgani tufayli aka ukasi, ota bolasi, qarindosh qarindoshi bilan uzilib qolgan aloqalarni tikladi. Xalqlarimiz o‘rtasida quda-andachilik, qarindoshlik rishtalari mustahkamlandi. Ta’bir joiz bo‘lsa, mehr rishtalari qayta bog‘landi.

Yangilanishlar shabadasi

Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. Bugun buyuk xalqimiz ko‘p yillik orzu-niyatlari, murod-maqsadlariga erishmoqda, ulkan rejalari ro‘yobga chiqmoqda. Odamlarni rozi qilishga qaratilgan ezgu ishlar har bir mahallaga, xonadonga kirib bordi.

Mamlakatdagi keng ko‘lamli yangilanishlarning hal qiluvchi omili haqida gapirganda, avvalo, odamlarning ongu tafakkurida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar, ularning yon-atrofdagi voqealarga munosabati, daxldorlik hissi, siyosiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasi tobora o‘sib borayotganini alohida ta’kidlash joiz.

Bugun odamlar muammolarni ochiq ayta boshladi, inson qadri yuksaldi, aholining tinch, osuda va farovon yashashi uchun barcha sharoitlar, qulayliklar yaratildi. So‘z erkinligi, matbuot erkinligi borasidagi barcha to‘siqlar olib tashlandi. Xalqimizga mehr-oqibat, insoniylik, ahillik, asosiysi, qadr tuyg‘usi qaytdi. O‘zgarishlar shabadasi xalqimizga chinakam erk berdi, uning qadrini ko‘tardi.

Yangi O‘zbekiston erishayotgan olamshumul yutuqlar, xalqimiz yuz yillar davomida faqat orzu qilib kelgan turmush sharoitini bizga birov chetdan kelib qilib bermaganini uyg‘oq yurak borki, ko‘rib, sezib va anglab turibdi. Bu fundamental o‘zgarishlar oqilona va odilona siyosat, inson qadrini ulug‘lash yo‘lidagi ezgu sa’y-harakatlaru mashaqqatlarning munosib mevasidir.

Xulosa o‘rnida aytmoqchimanki, oxirgi sakkiz yildagi demokratik o‘zgarishlar kimlargadir yoqish, maqtanish, turli reytinglarga kirish uchun emas, aksincha, xalqimizning bugungi hayoti va ertangi istiqbolini o‘ylab, milliy manfaatlarimiz yo‘lida amalga oshirilmoqda. Demak, biz ushbu tarixiy evrilishlarni chuqur anglashimiz va ularni yana bir bor birgalikda yodga olishimiz ayni muddao bo‘ladi, nazarimda. Prezidentimiz aytganidek, “Yangi O‘zbekiston barchamizniki ekanini, uning orzudan haqiqatga, imkoniyatdan voqelikka aylanishi bizga bog‘liq ekanini aslo unutmaylik”.

Hududlar qiyofasi

SURXONDARYO XALQARO SAVDO MARKAZLARIDAN BIRIGA AYLANMOQDA

Tadbirkorlikda kichik biznes muhim. Chunki u iqtisodiy rivojlanishning asosiy tendensiyalaridan. Shu bois, bu yo‘nalishni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, o‘tgan yil 16-dekabr kuni Prezidentimiz raisligida bank xizmatlari orqali mahallalarda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va 2025-yil uchun asosiy rejalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ham bu masala yana bir bor kun tartibiga chiqdi.

O‘tgan 6 yilda oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida 750 ming kishi kreditini vaqtida qaytarib, daromadli biznesga ega bo‘ldi. Ulardan 58 mingdan ortig‘i yangi korxona ochdi. 2025-yilda esa 5 milliondan ziyod odamni daromadli qilish, 1,5 million kishini kambag‘allikdan chiqarish mahallabay hisob-kitob qilingan.

Bu maqsadga erishish uchun hududlarning iqtisodiy sektor rahbarlari o‘z dunyoqarashini o‘zgartirishi, ish tizimi va yondashuvlarini tubdan qayta ko‘rib chiqishi zarurligi ta’minlandi.

Hududlarda tadbirkorlik jonlansa, kichik biznes bilan shug‘ullanuvchilar safi kengaysa, mamlakatning iqtisodiy ko‘rsatkichi yuqorilaydi, ishsizlik, infratuzilmaga doir qator muammolar bartaraf etiladi.

Termiz shahridagi Surxon sohili mahallasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes vakillari faoliyati fikrimiz misolidir. Shu mahallada yashovchi Odil Almanov bir necha yil oilasidan, yaqinlaridan olisda — xorijda ishlab kelgan. Keyingi yillardagi o‘zgarishlar tufayli yurtimizga qaytdi. Tadbirkorlik salohiyatini ishga solib, mahallada bo‘sh turgan binoni ijaraga oldi va faoliyatini yo‘lga qo‘ydi. Hozir nafaqat o‘zi, oilasi, shuningdek, 10 dan ortiq mahalladoshining ham bandligini ta’minladi.

— Asosiy ishimiz shift uchun gulli bezaklar ishlab chiqarish, — deydi Odil Almanov. — Mahalladagi hokim yordamchisi ko‘magi bilan ajratilgan kredit evaziga chet eldan maxsus uskuna olib kelib o‘rnatdik. Avvaliga bir oz hadik ham bo‘lgandi. Hozir samarali ishlayapmiz. Mamlakatimizda tadbirkorlar uchun barcha sharoitlar bor. Muhimi, bu yo‘nalish aynan davlatimiz rahbarining asosiy diqqat-e’tiborida. Buni yaqinda o‘tkazilgan videoselektorda ko‘tarilgan mavzu va masalalardan yaqqol angladik.

Qandolatchilik xo‘jalik faoliyatining yana bir turi. Unda asosiy e’tibor shirinliklar ishlab chiqarish va sotishga qaratiladi. Bu yo‘nalishda biznesni yo‘lga qo‘yishda aniq rejalashtirish va diqqat bilan ishlash talab etiladi. Termizlik Iqbol Isoqova shu yo‘nalishda faoliyat yuritadi.

— Ishimni 2 kilogramm shakar, 10 kilogramm un bilan boshlaganman. Hozir 12 turdagi shirinliklarni tayyorlab, bozorga yetkazib beryapman. Bir nechta xotin-qizni ish bilan ta’minlaganman. Ham o‘zimning ro‘zg‘orim obod, ham mahalladoshlarimning. Davlatga soliq to‘lab foyda beryapman, — deydi qandolatchi.

Kichik biznes rivoji davlatga soliq tushumi ko‘payishida ham muhim. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, infratuzilmani rivojlantirish va jamiyatni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Ta’kidlanganidek, mahallalarda tadbirkorlarning ko‘payishi ko‘rsatish sifati oshishi, raqobatni kuchaytirishga xizmat qiladi. Buni birgina mahallamiz misolida ham ko‘rsa bo‘ladi. Bundan 7-8 yil oldin mahalla infratuzilmasi, odamlar hayoti, kelajakka ishonchi qanday ediyu hozir qanday! Tafovut katta. Asosiysi, odamlarning dunyoqarashida ham ijobiy o‘zgarishlar bor, — deydi Termiz tumanidagi “Surxon sohili” MFYdagi hokim yordamchisi Zafar To‘ranazarov.

Tadbirkorlik aholi farovonligi va daromadini oshirishning ishonchli yo‘li ekani bugun o‘z isbotini topayotir. Shu bois, mamlakatimizda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, yetarli shart-sharoit yaratib berish va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilyapti. Ayniqsa, hududlarda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi va yangi loyihalar ish boshlashi yuqoridagi fikrimizning amaliy ifodasi bo‘lmoqda.

Ishbilarmonlikni rivojlantirish asosi yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish va xorijiy mamlakatlarga keng eksport qilishdir. Shundan kelib chiqqan holda, “Termiz erkin iqtisodiy zonasi”ni tashkil etish jarayonida bu jihatlarga alohida e’tibor qaratildi. Prezidentimizning tegishli farmoni bilan Termiz erkin iqtisodiy zonasi negizida Termiz tumani “Ayritom” xalqaro savdo markazi erkin savdo zonasi tashkil etildi. Bu yerda O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijiy davlatlarga eksport qilish uchun keng imkoniyat mavjud.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Afg‘onistonda import tovarlar qiymati yiliga 4-5 milliard AQSH dollarini tashkil etar ekan. Shuni inobatga olsak, qo‘shni davlatning xalq iste’moli mollari mamlakat iqtisodiy rivojida katta ahamiyatga ega. Bu nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki farovonlik va moddiy barqarorlikka ham hissa qo‘shadi.

— Tadbirkorlikning taraqqiy etishi yangi ish o‘rinlari ochilishi, yaxshilangan infratuzilma, yangi mahsulotlar ishlab chiqarilishi va xizmat sotiladigan katta bozorga ehtiyoji bo‘lgan. Termiz erkin iqtisodiy zonasini tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad ham shu — hududda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko‘rsatiladigan xizmatlar turini kengaytirish orqali eksport hajmini oshirish. Termiz erkin iqtisodiy zonasi bu borada katta imkoniyatlar eshigini ochdi.

Jumladan, 2024-yilning 9 oyi davomida Afg‘onistonga eksport qiymati 24 million 775 ming dollarni tashkil etgan. Import ulushi esa 2 million 540 ming dollarga yetkazilgan. Bugun bu hudud Afg‘oniston tadbirkorlari va fuqarolari uchun qator qulayliklar yaratmoqda.

— Ilgari davlatimizda ishlab chiqarilgan turli iste’mol mahsulotlari realizatsiyasi bilan bog‘liq muammolarga duch kelar edik. Hozir Surxondaryoda biz “jahon bozori” deb ataydigan markazning foydalanishga topshirilganidan men kabi tadbirkorlar hamda oddiy afg‘on fuqarolari behad xursand, — deydi afg‘onistonlik Muhammad Umidjon. — O‘zim ham shu yerda savdo bilan shug‘ullanyapman. Daromadim oshyapti. Savdo ham qizg‘in. Bu yerda ikki davlat fuqarolarining bandligi ta’minlangan. To‘g‘risi, bu iqtisodiy zonada biz — afg‘onistonliklar uchun bunday yuksak darajada sharoit yaratiladi deb hech o‘ylamagan edim. O‘zbekiston Prezidentidan juda minnatdormiz.

Markazga kirib-chiqish uchun afg‘onistonliklar, qo‘shni mamlakat orqali kirib keladigan boshqa davlat fuqarolari hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga “yashil yo‘lak” ochib berildi. Bu esa xalqaro savdo markazida mahalliy tadbirkorlar qatori afg‘onistonlik fuqarolarning ham emin-erkin savdo qilishi hamda tijorat bilan shug‘ullanishi, ishlab chiqaruvchilar bilan shartnoma imzolashida qulaylik bo‘ldi.

— Terini qayta ishlash korxonam bor. Unda 350 kishi ishlaydi. Markazning ochilishi meni juda ham sevintirdi. Sababi, bu men uchun yangi eksport geografiyasini ochdi. Aslida, ko‘plab davlatlar bilan savdo aloqalari o‘rnatganman. Ammo O‘zbekiston bozori men uchun yangilik bo‘ldi. Shu tufayli hamkorlikni yo‘lga qo‘ydim, — deydi afg‘onistonlik tadbirkor Muhammad Samiy G‘iyosiy.

Surxondaryo viloyati hokimligi ma’lumotiga ko‘ra, 2024-yilning dekabriga qadar 20 ga yaqin davlatga 400 million dollar qiymatidagi mahsulot eksport qilingan. Bu ko‘rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan 154 foiz o‘sgan. Tovarlarning eksport tarkibiga e’tibor qaratsak, sanoat mahsulotlari ulushi 43 foiz (98,4 million dollar), meva-sabzavot mahsulotlariniki esa 57 foiz (127,8 million dollar)ni tashkil qilgan. Ana shunday iqtisodiy o‘sish sur’atini xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish dinamikasida ham ko‘rish mumkin. Masalan, shu davrda 800 million dollardan ko‘proq mablag‘ yo‘naltirilgan.

Prezidentimiz rahbarligida o‘tgan yil 22-noyabr kuni Surxondaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazilgan edi. Unda davlatimiz rahbari mas’ullarga hududda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan qator vazifalarni belgilab bergandi.

2025-yilda vohaga 2 milliard dollar miqdorida investitsiya jalb etilishi belgilangan. Muhimi, 425 ming kishini band qilish va eksportni 320 million dollarga yetkazish reja qilingan. Hududda qariyb 36 gektar “Ayritom” xalqaro savdo majmuasining imkoniyati katta. Bugun ushbu erkin iqtisodiy zonada bir oyda qiymati o‘rtacha 5 million dollarga teng barcha turdagi mahsulotlar sotilyapti. Zona hududi yana 150 gektarga kengaytirilsa, qo‘shimcha 250 million dollarlik loyihalarni amalga oshirish imkoniyati tug‘iladi.

Oldinda bajariladigan ishlar talaygina. Asosiysi, maqsad sari ilk va dadil qadamlar qo‘yildi. Muhimi, bu sa’y-harakatlar aholi bandligini ta’minlash hamda hududning eksport salohiyatini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yangicha yondashuvlar

Prezidentimizning 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish, bir gektardan olinadigan o‘rtacha daromadni 5 ming dollarga yetkazish muhim strategik vazifalar sifatida belgilab berilgan.

GOLUBIKA

Uni yetishtirish har jihatdan foydali

Golubika mevalarining pishish davomiyligi 1–1,5 oy davom etadi. Turining xilma-xilligiga va iqlimga qarab, bu may-iyun oylariga to‘g‘ri keladi. Har bir nav pishib yetilish davrida 3 martadan 5 martagacha hosil beradi.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Dunyoda juda tez ommalashayotgan qimmatli rezavor mevalardan biri golubika hisoblanadi. Buning boisi, ta’mi o‘ziga xosligi, vitaminga boyligi va shifobaxshligidir. Ushbu mevani yetishtirish yalpi hajmi qariyb 1 million tonnadan ortadi. Ekspertlar fikricha, keyingi ikki yilda uning maydoni yanada ortib, eksport salohiyati joriy yilda qariyb 3 milliard dollarga yetadi.

Davlatimiz rahbarining o‘tgan yil 14-15-oktabr kunlari Toshkent viloyatiga tashrifi chog‘ida Ohangaron va Bo‘stonliq tumanlarida ming gektardan adir va tog‘ oldi yerlarida malina hamda golubika plantatsiyasini, Parkentda 2 ming gektar va Ohangaronda ming gektarda uzum va gilos bog‘larini tashkil qilish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan edi. Bu orqali 5 ming kishini, ayniqsa, kambag‘al oilalarni daromadli qilish mumkinligi ta’kidlangandi. Umuman olganda, viloyatni bog‘dorchilik bo‘yicha namunali hududga aylantirib, eksportni 300 million dollarga yetkazish vazifasi belgilangan.

Prezidentimiz, shuningdek, 2024-yil 9-aprel kuni Jizzax viloyati Zarbdor tumanidagi Lalmikor mahallasiga tashrifida ham mahallada rezavor mevalar yetishtirish bo‘yicha o‘quv maydonini ko‘zdan kechirgan edi. Ushbu yerda maymunjon, xo‘jag‘at, golubika ko‘chatlari o‘stirilib, tomorqalarda ekilishi, hosilga kirgach, eksportchilar tomonidan sotib olinishi aytib o‘tildi. Prezidentimiz tomorqa egalariga bu mevalarni sifatli yetishtirish ilmini o‘rgatish muhimligini ta’kidladi. Bu loyihani kengaytirish, aholining xarid qobiliyatini oshirish uchun tomorqa egalari bilan banklar o‘rtasida hamkorlikni samarali yo‘lga qo‘yish bo‘yicha fikr almashildi.

Aytib o‘tganimizdek, golubika dunyo iste’mol bozorida katta talabga ega bo‘lgan mevali o‘simliklardan biridir. Shimoliy Amerikada uning madaniy navlari keng tarqalgan va qimmatbaho oziq-ovqat hamda dorivor o‘simlik hisoblanadi.

Dunyoda golubikaning sovuqqa va qurg‘oqchilikka chidamli, yuqori hosildor yangi navlarini yaratish, ko‘paytirish va hosil yetishtirishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozir uning 25 ga yaqin navi yetishtiriladi.

Peru, Chili, Kanada, Meksika, Polsha, Xitoy, Rossiya, Turkiya kabi davlatlarda ushbu o‘simliklar ko‘chatlari va mevalarini zamonaviy resurstejamkor texnologiyalar orqali yetishtirishning samarali usullari ishlab chiqilgan. Respublikamiz sharoitida ham vitaminga boy ushbu mevali o‘simlikni ko‘paytirish va parvarishlashning samarali usullarini ishlab chiqib, amaliyotga tatbiq etish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi ekologik vaziyatda aholi organizmini tiklashning yagona usuli — tabiiy va vitaminlarga boy mahsulotlarni iste’mol qilishdir.

Golubika mevasi yangi terilgan va qayta ishlangan holda iste’mol qilinadi. Undan murabbo va vino tayyorlanadi. Odatda, golubika chernika, klyukva, brusnika kabi mevalar bilan aralashtirilgan holda ishlatiladi. Buta ko‘rinishida o‘sadi. Hozirgi kunda iqlimi mos kelgan davlatlarda sanoat miqyosida ekish daromadli biznesga aylangan.

O‘zbekistonda yetishtiriladigan golubika mevasi ayni paytda yurtimizda eng daromadli bo‘lgan gilos yetishtirishdan ham jozibali va daromadli biznesga aylanishi mumkin. Chunki golubika dunyo bo‘ylab eng ko‘p import qilinadigan rezavor mevalar sirasiga kiradi. Yurtimizda golubika mevasini qo‘lda yig‘ib olish uchun ishchi kuchi yetarli. Tog‘li hududlarimiz golubika o‘stirish uchun qulay.

Golubika — parvarishi oddiy bo‘lgan o‘simlik. Ammo uni ekish va o‘stirishda tuproqning ishqorlilik darajasiga alohida e’tibor berish kerak. Bu o‘simlik evolyutsiyasida o‘rmon tuproqlarida o‘sib shakllanganini e’tibordan chetda qoldirmasligimiz zarur. Golubika parvarishi uchun qanday tarkibdagi torf talab qilinadi, ko‘chatini ekish uchun tomorqa yoki dala hududlari ekin maydonlarining qaysi joyini tanlash kerak? Golubikaning mo‘tadil o‘sishi, rivojlanishi va hosil berishi uchun ishqorli tuproq zarur. Shuning uchun tuproqning ishqorlilik darajasi muntazam ravishda tekshirib turilishi, zarur hollarda uning ishqoriyligini oshirish choralarini ko‘rish lozim. Respublikamizning tuproq muhiti neytral rN ko‘rsatkichi 6,5-7 bo‘lganligi sababli ushbu o‘simlik hozirgi kunda katta tuvaklarda yetishtirib kelinmoqda.

Tuproq ishqorliligini 4-4,5 oralig‘ida saqlab turish uchun esa o‘ziga xos tadbirlar talab etiladi.

Agar yer maydoni golubika ekish va parvarishlash uchun belgilangan talablarga umuman javob bermasa, bu holda 30–50 litr hajmli tuvaklarda maxsus substratlardan solgan holda parvarishlash orqali uzoq yillar davomida hosil yetishtirish mumkin. Buning uchun maxsus tayyorlangan tuproq aralashmasi tuvaklarga solinib, har biriga bir tupdan ko‘chat ekiladi va buta holatiga qarab, talab darajasida yiliga ustki qismi yangilanib boriladi. Ekilgan ko‘chatlari 2-3 yildan boshlab hosil bera boshlaydi va har bir tupidan o‘rtacha 3-4 kilogrammgacha hosil olinadi. Hosildorlik o‘simlik yoshi va parvarishlash texnologiyasiga qarab ortib boradi. Golubika ko‘p yillik buta hisoblanib, o‘rtacha 50–60 yil davomida hosil berishi aniqlangan. Besh-olti yildan keyin bir mavsumda gektaridan 15 ming kilogramm atrofida hosil yig‘ib olinadi.

Golubika mevalarining pishish davomiyligi 1–1,5 oy davom etadi. Turining xilma-xilligiga va iqlimga qarab, bu may-iyun oylariga to‘g‘ri keladi. Har bir nav pishib yetilish davrida 3 martadan 5 martagacha hosil beradi.

Qimmatbaho va eksportbop rezavor mevalardan biri bo‘lgan golubikani respublikamiz tuproq-iqlimi sharoitida samarali ko‘paytirish va yetishtirish texnologiyasi bo‘yicha ham ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Toshkent viloyatining Toshkent tumanida “World Ekzotik Agro” MCHJ tomonidan golubika yetishtirish ishlari yo‘lga qo‘yilgan. Ilm-fan va ishlab chiqarishni integratsiya qilish maqsadida 2024-yilning dekabr oyida Toshkent davlat agrar universiteti va MCHJ o‘rtasida hamkorlik shartnomasi imzolanib, talabalar, magistrantlar hamda doktorantlarning rezavor mevalar bo‘yicha o‘quv amaliyotlari hamda ilmiy-tajriba ishlari amalga oshirilmoqda. E’tiborli jihati, universitet bakalavr talabalari uchun ushbu korxonada o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini o‘tash bilan birga ish haqi to‘lanadigan stajirovkalarni amalga oshirish imkoniyatlari yaratildi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, respublikamiz tuproq-iqlim sharoiti uchun yangi bo‘lgan ushbu o‘simlikni aholi tomorqalari, dehqon va fermer xo‘jaliklarida yetishtirishni yo‘lga qo‘yish orqali ularning daromadlarini oshirish hamda aholi salomatligi uchun juda foydali ushbu mevaga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga erishiladi.

Ixtiyor NAMOZOV,
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori,
Akbar QURBONMURODOV,
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori

2025-yil — Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili

IZCHIL TASHABBUSLAR

EKOLOGIK OQIBATLARGA QARSHI KURASHISH O‘ZBEKISTONNING ASOSIY MAQSADI

Abduvali ISAJONOV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash jarayonida qator ichki va tashqi muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Birinchidan, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan energiya resurslari zaxirasiga bog‘liq. Dunyoda aniqlangan tabiiy energiya manbalari zaxirasi energiya iste’molining hozirgi darajasi saqlanib qolsagina, keyingi 54 yil davomida ehtiyojni qondirish imkonini beradi. Iqtisodiy rivojlanish esa unga ehtiyojning ortishi va energiya tanqisligi muammosi xavfini yanada kuchaytiradi. Ushbu vaziyatda qazib chiqariladigan yoqilg‘i-energetika manbalari tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish hisobiga o‘zgarib boradi. 2030-yilga qadar jahonda elektr energiyasi ishlab chiqarishning 36 foizi shamol va quyosh elektr stansiyalari yordamida amalga oshiriladi. “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar samarasi tufayli jahon iqtisodiyotining energiya sig‘imdorligi 2050-yilga qadar 50 foiz qisqarishi mumkin. Natijada energiyadan samarali foydalanish hisobiga jahon miqyosida 0,2-1,2 trillion dollar tejalishi mumkin.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish va iste’mol hajmining tez o‘sishi atrof-muhitning inson faoliyati natijalari bilan kurashish imkoniyatini 25-30 foiz qisqartirdi. Ekotizimning 60 foizidan insonlar haddan tashqari keng foydalanmoqda. Dunyoda kuzatilayotgan demografik o‘sish oziq-ovqat va energiyaga talabning ortishiga sabab bo‘ladi. 2030-yilga borib oziq-ovqat mahsulotlari taklifi hozirgiga qaraganda 50 foizga, toza ichimlik suvi iste’moli esa 30 foizga o‘sadi.

Uchinchidan, iqlimning keskin o‘zgarib ketishi natijasida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Iqlim o‘zgarishi inson hayoti sharoitini ancha yomonlashtiradi va farovonligiga katta zarar yetkazadi.

Jahon tajribasiga ko‘ra, “yashil” iqtisodiyot ijtimoiy barqarorlikka ko‘maklashadi, yangi ish o‘rinlari ochish orqali iqtisodiy salohiyatni oshirishga xizmat qiladi, iqtisodiy taraqqiyotga yordam beradi. Yalpi ichki mahsulotning o‘sishini ta’minlaydi, mamlakat daromadini oshirib, ishsizlik darajasini pasaytiradi. Shu bilan birga, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish iqlim o‘zgarishi, mineral resurslar yo‘qotilishi va suv tanqisligi kabi global tahdidlar xavfini kamaytiradi.

Iqtisodiy o‘sishning an’anaviy modelidan “yashil” iqtisodiyotga o‘tish umumjahon harakati bo‘lib, u nafaqat alohida milliy iqtisodiyotning, balki dunyo iqtisodiyoti barqarorligini belgilab beradi. “Yashil” iqtisodiyotni ilgari surish esa taraqqiyotning asosiy yo‘lidir.

O‘zbekistondabarqaroriqtisodiyrivojlanish va “yashil” transformatsiyani amalga oshirishda uglerod neytralligi yo‘lidan borish orqali energiya xavfsizligini mustahkamlash mumkin. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish energiyadan samarali foydalanishga yordam beradi va iqtisodiyotning import qilinadigan tabiiy gazga qaramligini kamaytirish orqali energiya xavfsizligini qo‘llab-quvvatlaydi.

Qayta tiklanadigan energiya manbalari mamlakat energiya ta’minotining muhim qismini ta’minlashi mumkin.

Uglerod neytralligiga erishish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan yanada keng foydalanish va kam uglerodli texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda energiya samaradorligini oshirish zarur.

Prezidentimiz 2023-yilda “Bir makon, bir yo‘l” uchinchi xalqaro forumida so‘zlagan nutqida “Markaziy Osiyoning “yashil” kun tartibi” va “Yashil ipak yo‘li” konseptual tashabbuslarini o‘zaro bog‘liq holda amalga oshirish muhimligini ta’kidlagandi. Davlatimiz rahbari ushbu muhim vazifani bajarish maqsadida “Yashil” taraqqiyot dasturi”ni ishlab chiqish natijasida iqtisodiyot tarmoqlarini “yashil” taraqqiyot talablari asosida transformatsiya qilish va raqamlashtirish, transport hamda energetika tarmoqlarida barqaror infratuzilma yaratish, kambag‘allikni qisqartirish va “aqlli” qishloq xo‘jaligini rivojlantirish masalalariga katta e’tibor qaratgandi.

Bundan tashqari, Prezidentimiz o‘tgan yil noyabrda Boku shahrida bo‘lib o‘tgan BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasi (COP29)dagi nutqida mamlakatimizda uglerod neytralligiga erishish bo‘yicha keng miqyosli islohotlar qat’iy olib borilishi, 2030-yilgacha havoga isciqxona gazi chiqarilishini 35 foiz kamaytirish va bu majburiyatni 2050-yilga qadar yanada kengaytirishga tayyor ekanini yana bir karra ta’kidladi. Bu O‘zbekiston mazkur yo‘nalishdagi ishlarni izchil amalga oshirayotganini anglatadi.

Yaqin kelajakda “yashil” energetika ulushini 40 foizgacha oshirish, elektromobil va “yashil” vodorod klasterlari, quyosh va shamol generatsiya xablari yaratish, “Yashil makon” umummilliy dasturi doirasida ko‘kalamzor hududlarni keskin ko‘paytirish belgilangani shunga qaratilgan sa’y-harakatlardir.

TABIAT MUHOFAZASI

ZIMMAMIZGA MAS’ULIYAT YUKLAYDI

Gulchehra JO‘RAYEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Yurtimizning har qarich yeri oltinga teng. Uning go‘zal tabiati, musaffo havosi, ziloldek tiniq va shifobaxsh suvi har qanday insonni o‘ziga maftun etadi. Ana shunday betakror go‘zallikni asrab-avaylash, kelajak avlodga bus-butun yetkazish muqaddas burchimizdir.

Ammo ekologik barqarorlik, atrof-muhit tozaligiga mas’uliyatni barchamiz barobar his eta olyapmizmi? Bugun ushbu mavzuda qayta-qayta bong urilayotgani bejiz emas. Sababi, keyingi yillarda atmosfera havosi buzilishi, iqlim o‘zgarishi, qurg‘oqchilik, Orol dengizi qurishi va boshqa global ekologik muammolar insoniyatdan tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni talab etmoqda.

So‘nggi yillarda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida yurtimiz bo‘ylab keng qamrovli ishlar bajarilayotgani, ayniqsa, “yashil” hududlarni ko‘paytirishga e’tibor qaratilayotgani odamlarning ko‘nglidagi ish bo‘lyapti. Zero, yashab turgan joyimizni ozoda saqlasak, tabiatga mehr va e’tibor bersak, kelajak avlod ham munosib ekologik sharoitda yashaydi.

Ushbu jarayonda sohaning mukammal tashkiliy-huquqiy asoslari yaratilib, atmosferani muhofaza qilish, yer, suv, yer osti boyliklari, biologik resurslarni asrash va ulardan oqilona foydalanishning konsepsiya hamda strategiyalari ishlab chiqilgani katta ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga ham har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lishi huquqi bo‘yicha norma kiritilib, davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlashi qat’iy belgilab qo‘yilgan. Bu, o‘z navbatida, inson huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini ta’minlashga xizmat qilyapti.

Shunga qaramay, bugun ayrim yurtdoshlarimiz xonadonidan chiqqan chiqindini ariq va kanallarga oqizib yuborayotgani, yo‘l bo‘yiga tashlab ketayotgani kishini o‘ylantiradi, mushohadaga chorlaydi. Vaholanki, Bosh qonunimizning 62-moddasida fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar deb belgilab qo‘yilgan.

Biz uchun qadrli bo‘lgan ne’matlarni isrof qilmaslik xalqimizning milliy qadriyatlari, ezgu fazilatlari sirasiga kiradi. Bolaligimizda buvilarimiz, bobolarimiz “Har tomchi suvning qadriga yetgin”, “Suvga chiqindi tashlamagin” deb ko‘p aytardi. Bahor kelishi bilan ariqlar tozalanar, daraxtlarga shakl berilib, tanasi oqlanardi. Keyingi paytlarda bu an’analar yodimizdan ko‘tarilayotgandek. Ayting, ahvol shu zaylda ketaversa, bolalar ona tabiatni sevishni kimdan o‘rganadi?!

Davlatimiz rahbarining nafaqat mamlakatimiz, balki dunyo miqyosida ilgari surayotgan tashabbuslari zamirida ham atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, jahon xalqlari bilan birgalikda global iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish va moslashish jarayonida sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirish maqsadi mujassam. 2025-yilning Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili deb e’lon qilingani ana shu maqsad yo‘lidagi muhim qadamdir.

Joriy yilda oldimizda muhim vazifalar turibdi. Bu borada ekologik vaziyatni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliy harakatini chinakam xalq harakatiga aylantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining iste’moldagi ulushini oshirish orqali “yashil” texnologiyalarni joriy qilishga alohida e’tibor qaratamiz.

Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ona tabiatni asrab-avaylash shu yurtda yashayotgan har bir fuqaroning nafaqat konstitutsiyaviy, balki kelajak avlod oldidagi eng mas’uliyatli burchidir.

KELAJAK KASBLARI

moliyaviy barqarorlikni kafolatlaydimi?

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Bekzod XO‘JAYEV, pedagogika fanlari doktori, professor

Yaqin yillarda tug‘ilgan bolalarning aksariyati kelajakda egallaydigan kasblarning qanday nomlanishini ham bilmaymiz. Bunday sohalarni ataydigan so‘z hozircha lug‘atimizda yo‘q. Qiziq jarayon, to‘g‘rimi? Tahlilchilarning hisob-kitobiga ko‘ra, 2025-yilga kelib, odamlar va mashinalar o‘rtasidagi mehnat taqsimoti 85 million ish o‘rni yo‘qotilishiga olib kelishi mumkin. Bir qarashda katta yo‘qotishdek tuyuladi. Ammo davrning mana shu shiddati ish o‘rinlarini qisqartirish bilan cheklanmaydi, afzalliklari ham yuzaga chiqadi. Odamlar, mashinalar va algoritmlar o‘rtasidagi yangi mehnat taqsimotiga moslashgan 97 million yangi kasb egasi paydo bo‘lishi kutilmoqda.

Bejiz bu ma’lumotlarni keltirmadik. Ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning katta qismiga ta’lim orqali yechim topiladi. Mehnat bozori talablarining kun sayin o‘zgarib borishi ham o‘qitish tizimi oldiga yangidan yangi masalalarni qo‘yadi. Ishchi kuchi malakasini muntazam oshirish va bozor talablariga moslashtirib borish shular jumlasidan.

Ortda qolayotgan yillar, o‘tayotgan har bir davr o‘zining xulosasini aytadi. Joriy o‘quv yilida ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlarni sarhisob qilsak, kadrlar tayyorlash jarayonini iqtisodiyotning rivojlanayotgan tarmoq va sohalariga manzilli yo‘naltirishga alohida e’tibor qaratilganiga guvoh bo‘lamiz.

Davlatimiz rahbarining shu yil 24-maydagi “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonida oliy ta’limga qabul qilishda kadrlarga ehtiyojni hisobga olish belgilab qo‘yilgan. Bu — mehnat bozori o‘rganiladi va mana shu tahlil tufayli kelgusida bitiruvchilar ish topishga qiynalmaydi, degani.

2024/2025-o‘quv yili qabulidan boshlab mazkur yo‘nalishdagi o‘zgarishlar start oldi. Davlat buyurtmasi parametrlarini davlat oliy ta’lim muassasalari kesimida taqsimlash amaliyoti bekor qilindi. Aniqroq aytsak, davlat buyurtmasi sohadagi yangilanishlarga mos ravishda o‘zgarib turadi. Misol uchun, joriy o‘quv yili bo‘yicha kvotalar taqsimotida muhandislik, tibbiyot, aniq va tabiiy fanlarga ustuvorlik berildi. Ammo bu mazkur yo‘nalishlar o‘n yillab o‘z ustuvorligini saqlab qoladi, degani emas. Mehnat bozori talablari muntazam o‘rganilgan holda har o‘quv yilida qaysi sohalar yuqori kvota olishi belgilab boriladi. Diplomli ishsizlar soni ortishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bir haqiqatni aytib o‘tish kerak: shu vaqtgacha bizni qiynab kelayotgan asosiy muammo kadrlar va ishga ehtiyoj o‘rtasida muvozanat buzilishi edi. Oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan inson sifatida tayyor kadrlarning mehnat bozorida o‘z o‘rnini topolmasligi, yillab ishsiz yurishi yoki boshqa yo‘nalishlarda mehnat qilib, “o‘qishning foydasi yo‘q, ana diplom chang bosib yotibdi”, degan xulosaga kelishi dilimizni og‘ritar edi. Kvotalarga beriladigan ustunlik mehnat bozori talablariga ko‘ra belgilanishi mana shu og‘riqli muammoga o‘z vaqtida topilgan yechim bo‘ldi.

Bu qanday amalga oshirilishi ham huquqiy-me’yoriy hujjatda aniq belgilab qo‘yilgan. 2025-yildan boshlab davlat buyurtmasi parametrlari Iqtisodiyot va moliya hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirliklari ma’lumoti asosida shakllantiriladi. Mas’ullar oliy ma’lumotli kadrlarga talabni prognoz qilib borishi natijasida davlat buyurtmasi har 4 yilda yangilanadi. Demak, kvotani oshirish yoki kamaytirish tahliliy xulosalar asosida hal etiladi.

Kechagina biz uchun yangi sanalgan kasblar bugun ikkinchi umrini yashamoqda. Anglaganingizdek, kasblar bozori ham kun sayin turlanib boraveradi. Oqilona qaror natijasida 2024-yil yakuniga qadar mehnat bozorida kutilayotgan o‘zgarishlar ilmiy tadqiq qilinishi lozimligi belgilab qo‘yildi. Bu jarayonda ahamiyatini yo‘qotib boradigan hamda yangi paydo bo‘ladigan kasblar (lavozimlar) ro‘yxati, ularga qo‘yiladigan malaka talablari va kompetensiyalar shakllantiriladi. Jamlangan ma’lumotlar asosida esa 2025-yil 1-mayga qadar “O‘zbekiston yangi kasblar atlasi” elektron platformasi yaratiladi. Ahamiyatli jihati, mazkur atlas har yili yangilab boriladi.

“Kadrlar tayyorlashda katta davr uchun tahlil olinadimi?” degan savol paydo bo‘lishi mumkin. Boisi shiddatli zamonda bugun muhim deb bilgan kasbimiz ertaga ahamiyatini yo‘qotib qo‘yishi hech gap emas. Joriy yil 6-may kuni Prezidentimiz huzurida o‘tkazilgan taqdimotda soha mas’ullari oldiga xoh professional ta’limda bo‘lsin, xoh oliy ta’lim tizimida — tayyorlanayotgan kadrlar bozori bo‘lishi kerakligi birinchi galdagi vazifa etib belgilandi.

Bakalavriatda 306 ta yo‘nalishda kadrlar tayyorlanar edi. Katta raqam va tabiiyki, shuncha yo‘nalish zarurmi, degan o‘rinli savol paydo bo‘ladi. Ayrim yo‘nalishlarda tahsil olgan bitiruvchilarni kelajakda kasb bilan ta’minlash muammosi paydo bo‘lishi tahlil qilinib, bu yil 306 ta ta’lim yo‘nalishi 183 taga tushirildi.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, mehnat bozorida ehtiyoj bo‘lmagan 241 ta kasb va mutaxassisliklar klassifikatordan chiqarib tashlanib, mehnat bozoriga yangi kirib kelgan 24 ta kasb va mutaxassisliklar klassifikatoriga kiritilgan.

Klassifikatorga yangi kiritilgan kasblar qatoridan sanoat IT texnologiyalariga xizmat ko‘rsatish, “aqlli uy” loyihalash dasturchisi, multimedia qurilmalari va ilovalariga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha mutaxassis, quyosh panellarini o‘rnatish va texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha chilangar kabi kasblar o‘rin olgan. Demak, kadrlar tayyorlash borasida mana shu tahlillar inobatga olinadi.

Bizda hozir “sun’iy intellekt insonning nonini yarimta qiladi, ish o‘rinlarini egallaydi”, degan hadik bor. Ammo kelajakda texnologik taraqqiyot natijasida paydo bo‘ladigan yangi ish o‘rinlarini sun’iy intellekt emas, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan unumli foydalana oladigan insonlar egallaydi. Ya’ni sun’iy intellektni ham odam boshqaradi. Kasblarga qo‘yiladigan malaka talablarini tahlil qilish, yangilab borish shuning uchun ham zarur.

Xorijiy nashrlardan birida “2050-yilga borib tajriba, mahorat va ma’lumoti hech kimga kerak bo‘lmagan odamlarning yangi toifasi yuzaga keladi. Bu kabi “foydasiz insonlar” uchun mos keladigan ish topilmay qoladi” deb yozilgan edi. Ushbu gaplar oddiy ma’lumotdek tuyulishi mumkin, ammo kadrlar tayyorlash tizimini, sohada faoliyat yuritayotgan pedagoglarni chuqur o‘yga toldiradi. Faraz qiling: yillab o‘qigan, o‘rgangan sohangiz bora-bora keraksizga aylansa... Albatta, bu bitta shaxs uchun emas, butun jamiyat, davlat uchun qator muammolarni keltirib chiqaradi. Davlat qanchadan-qancha mablag‘, oliygohlar katta mehnat sarf qilib yetishtirgan kadrlar mehnat bozorida o‘rnini topolmasa, iqtisodiy muammolar ko‘lami ham kengayadi. Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan ta’lim yo‘nalishi va mutaxassisliklarini yaqin va o‘rta istiqbolda paydo bo‘lishi kutilayotgan kelajak kasblariga mos ravishda yangilab borish bugunning eng muhim talabi. Mana shu talab qondirilishiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilayotgani esa kun kelib yuqori samara beradi.

Hazrati Behbudiy kim bo‘lgan?

Boshlanishi 1-betda

Qaror mutolaasidan keyingi hayajon arimay turib, hazrati Behbudiyning hayoti va faoliyati bilan yaqindan tanishmoqni istadim. Bu yo‘lda O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, akademik Naim Karimov nashrga tayyorlagan Mahmudxo‘ja Behbudiyning ikki jilddan iborat “Tanlangan asarlar”i, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, taniqli yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammadning “Bir yillik qotillik qissasi” asari, yana Poyon Ravshanov, Halim Sayid, Nusrat Rahmon, ayniqsa, Naim Karimov kitoblari, san’atshunos Nigora Umarovaning maktublari, jurnalist Ixtiyor Rahmonning Behbudiy avlodlari bilan suhbati bilan tanishdim. O‘qigan, ko‘rgan va xulosalarimni ushbu maqolada muxtasar bayon etishga ming bir istihola bilan jazm qildim. Shoyad, bu jur’at hosilasi o‘laroq qog‘ozga tushgan xulosalar orqali zamondoshlarim, uka-singillarim hazrati Behbudiy to‘g‘risida birlamchi ma’lumot va tushuncha olsa...

Umid uchqunlari

Umidlar intihoda o‘ladi. Haqrost, eng so‘nggi damda ham inson yuragiga quvvat berib, eng og‘ir daqiqalarda ham uni ruhlantiruvchi narsa — umid.

Samarqandda yashayotgan asli turkistonlik Behbudxo‘ja o‘g‘li Mahmudxo‘janing ham umidlari ulkan, go‘yo ularning ro‘yobidan uning qalbi ham, butun koinot ham munavvar edi. U ajdodlari bilan faxrlanar, axir har kimning ham bobokaloni Xoja Ahmad Yassaviyga borib taqalmaydi-ku.

Tomirida ulug‘lar qoni jo‘sh urganini har on his qilib turgan Mahmudxo‘ja dastlab Samarqand madrasasida, keyinroq Buxoroda yaxshigina tahsil ko‘radi. An’anaviy tahsil bilan birga o‘z ustida qunt va sabot bilan ishlaydi. Tinimsiz izlanish va o‘rganishlar, yuksak fahm va chuqur bilim mukofoti o‘laroq u shariatning yuksak maqomlari — qozi, muftiy darajasigacha ko‘tariladi.

1899-1900-yillarda Behbudiy buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan muborak Haj safariga otlanib, safar chog‘ida ko‘p ijobiy hodisalarga guvoh bo‘ladi. Unda yangi maktab haqidagi qarashlar ham aynan ushbu safar chog‘i yanada mustahkamlanadi. Hajdan qaytgan Mahmudxo‘ja tashabbus va g‘ayrat ko‘rsatib, 1903-yil Samarqand atrofidagi Halvoyi va Rajabamin qishloqlarida yangi maktablarning tashkil topishiga erishadi.

Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Birin-ketin uning “Risolai asbobi savod”, “Risolai jug‘rofiyai umroniy”, “Risolai jug‘rofiyai Rusiy”, “Kitobat ul-atfol”, “Amaliyoti islom”, “Tarixi islom” kabi kitoblari paydo bo‘ladi.

Maktablarda savod chiqarayotgan bolalarni ko‘rgach, uning qalbida miltillagan umid uchqunlari alangalanib, tobora yorqinroq porlay boshladi.

“Tiyotr nadir?”

Mahmudxo‘ja 1903-1904-yillarda Moskva va Sankt-Peterburgga boradi, 1906-yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo‘ladi. Bular sayohat emas, xizmat safari edi. Masalan, Nijniy Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Rusiya musulmonlarining turmushi va madaniyati muammolariga bag‘ishlangan qurultoy chaqiriladi. Behbudiy bu qurultoyda turkistonliklar guruhini boshqaradi va katta nutq so‘zlaydi.

Uning nazarida ma’rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo‘lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o‘z qabohatini ham, malohatini ham ko‘ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuot sari boshladi. “Padarkush” dramasi shu tariqa maydonga keldi.



1911-yilda yozilgan “Padarkush” dramasi 1913-yildagina bosilib chiqadi. Kitob jildidagi “Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining yubiley sanasiga bag‘ishlanadi”, degan yozuv va uning Tiflis senzurasining ruxsati bilan chop etilishi shuni ko‘rsatadiki, ish oson ko‘chmagan. Pyesa bosilib chiqqandan keyin ham uni sahnaga qo‘yish uchun yaqin bir yil vaqt ketdi. Muallif bu haqdagi xatlarga javoban kinoyaomuz: “Turkistonda bekor odam yo‘qki, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi yo‘qki, teatr sahnasiga chiqib masxarabozlik qilsa”, deb yozgan edi.

“Padarkush” — o‘zbek dramaturgiyasining hamma yakdil e’tirof etgan birinchi namunasidir. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmuniga ko‘ra yangi o‘zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydi. Muallif “Milliy fojia” atagan, 3 parda 4 manzarali bu drama hajman juda ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va jo‘n. U jaholat va nodonlik, o‘qimagan bolaning buzuq yo‘llarga kirib, o‘z otasini o‘ldirgani haqida hikoya qiladi. Orqa-oldini o‘ylamagan boyning Toshmurod ismli o‘g‘li bor. O‘g‘il o‘qimagan. Boy atrofdagilarning gapiga kirmaydi, o‘g‘lini o‘qitmaydi, oqibatda u ko‘cha bezorilariga qo‘shiladi. Restoranda maishatga puli yetmay, sheriklarini tunda uyiga boshlab keladi. Boy uyg‘onib, ularni sezib qoladi. Lekin boyni o‘ldirib, pulini olib ketadilar.

Xulosa: jaholat va nodonlik otaning ham, bolaning ham boshiga yetadi. Agar butun millat shu ahvolga tushsa-chi?!

“Padarkush” dastlab 1914-yilning 15-yanvarida Samarqandda sahnaga qo‘yildi. “Xalq nihoyat ko‘p kelib, bilet yetmagani va joy yo‘qligi uchun uch-to‘rt yuz kishi



qaytib ketdi” deb yozadi mahalliy matbuot. Toshkentda 1914-yilning 27-fevralida Avloniyning “Turon” truppasi Kolizey (hozirgi Savdo birjasi binosi)da o‘z faoliyatini mana shu “Padarkush” bilan boshlagan edi. Spektakl oldidan mashhur Munavvarqori teatrning jamiyat hayotidagi roli va o‘rni haqida nutq so‘zlaydi. Boy rolini Abdulla Avloniyning o‘zi ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni “tarixiy kun” deb yozadi.

Matbuot sari

1913-yildan Behbudiy matbuot ishlari bilan shug‘ullanadi. Aprel oyidan “Samarqand” gazetasini chiqaradi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so‘ng to‘rt sahifada chop etilgan.

45 ta sonidan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishi to‘xtagan. O‘sha yilning 20-avgustidan u “Oyina” jurnalini chiqara boshlaydi. Bu suratli haftalik jurnal, asosan, o‘zbek tilida bo‘lib, unda ixcham forsiy she’rlar, maqolalar, ruscha e’lonlar ham berib borilardi.

Behbudiy shu yillari nashr ishlari bilan qizg‘in shug‘ullandi. “Nashriyoti Behbudiya” nomi bilan o‘z xususiy nashriyotini ochdi. Fitratning “Bayonoti sayyohi hindi” asarini 1913-yilda ruschaga tarjima qildirib, nashr etdi. Turkiston xaritasini tuzib, bosmadan chiqardi. Kutubxonani yo‘lga qo‘ydi. O‘sha davr vaqtli matbuotida “Behbudiy kutubxonasi” haqidagi xabarlar chiqa boshlagan edi.

U milliy til masalasiga katta e’tibor qaratdi. Birgina uning “Oyina” jurnali ma’rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga

doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalalari muharrirning hamisha diqqat markazida bo‘lgan. Behbudiy millatning taraqqiyoti uchun bir necha til bilishni shart hisoblardi. Masalan, jurnalning 1913-yil avgustdagi birinchi — nishona sonidayoq, “Ikki emas, to‘rt til lozim” nomli maqola bilan chiqqan edi.

Fitratning jurnalda bosilgan maqolalaridan biri “Himmat va saboti bo‘lmagan millatning haqqi hayoti yo‘qdur” deb nomlangan. “Tushundigim zamon ko‘nglum yonar, yig‘lamoq istarman, ko‘z yoshlarim kelmaydur” deb boshlanar edi maqola. Adib taraqqiyot va turmushda Ovro‘podan yer va osmon qadar uzilib qolgan Turkistonning fojiali ahvolidan so‘z ochgan edi.

Og‘ir kunlar ko‘lankasi

Mustamlakachilar “50-yil ilm-ma’rifatdan chetda saqlab kelgan”lari (Kuropatkin) Turkistonni osonlik bilan qo‘ldan chiqarmas edi. Fitna va ig‘vo tinimsiz davom etardi. Shundaylardan biri 1917-yilning bahorida Buxoroda yuz berdi. Amir fevral o‘zgarishlarini hisobga olib, rus elchixonasining maslahati bilan islohot e’lon qiladigan bo‘ladi. Va bu farmonni ushbu elchixonaning boshlig‘i janob Miller tayyorlaydi. Har xil anglashilmovchiliklarning oldini olish uchun sobiq general-gubernator, endilikda Rusiya Muvaqqat hukumatining Turkiston komissari Kuropatkin topshirig‘iga ko‘ra, Samarqand ijroiya qo‘mitasi Buxoroga bir necha kishilik hay’at yubordi. Ular orasida Mahmudxo‘ja Behbudiy ham bor edi.

7-aprel kuni islohot e’loni oldindan mo‘ljallanganidek, tantanaga, tantana esa fojiaga aylanadi. Amir va yoshlar, xurofotga berilgan dindorlar va jadidlar o‘rtasida o‘tib bo‘lmas choh paydo bo‘ladi. Miller bunda Behbudiyni ayblaydi. Faqat Miller emas, Toshkentda 9-aprelda boshlangan Turkiston ishchi va soldat deputatlari sovetlarining birinchi o‘lka syezdida ayrim rus deputatlari Buxoro fojiasining sababini Samarqanddan “o‘z ixtiyorlari bilan” borgan deputatlarga to‘nkaydi. Millatni ich-ichidan qayrash va nizo chiqarish izchil davom etadi. Behbudiy ushbu syezdda minbarga chiqib, bor voqeani tushuntirib bergan va bu haqda “Buxoro voqealari va daf’i tuhmat” (“Hurriyat” gazetasi, 1917-yil 1-may) degan maxsus maqola yozadi.

Bu og‘ir kunlardan darak berib, u ma’rifatparvar, millatparvar yurt farzandlari boshiga ko‘lanka tashlay boshlagan edi.

Asl qiyofaning zohir bo‘lishi

1917-yil 26-noyabrda Qo‘qonda o‘lka musulmonlarining 4-favqulodda qurultoyi ish boshladi. 27-noyabrga o‘tar kechasi Turkiston muxtoriyati e’lon qilinadi. Uning g‘oyaviy asoschilaridan biri Behbudiy edi. 1918-yil fevralida muxtoriyat sho‘rolar tomonidan vahshiyona bostiriladi.



Turkiston jadidchilik harakati yetakchisi Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘sha davrda xalq orasida juda katta obro-e’tibor qozongan edi. Buni yangi hukumat mutasaddilari ham yaxshi bilardi. Shuning uchun Behbudiyga yangi tuzilgan milliy masalalar bo‘yicha komissariat organlarida ish taklif qilishadi.

Komissariat tarkibida turli millatlar masalalari bilan shug‘ullanuvchi 8 ta alohida bo‘lim faoliyat yuritgan. 1918-yil 24-iyundan Behbudiy ushbu komissariatning turkiy millat masalalari bo‘limini boshqaradi. Ayonki, ushbu sanadan e’tiboran, Behbudiy sovet hukumati tarkibida yuqori martabali mulozim sifatida faoliyat boshlagan.

Behbudiyga 700 rubl miqdorida moyana belgilanadi. Bu o‘sha davr vazir o‘rinbosarining maoshi bilan bir xil bo‘lgan. Komissar o‘rinbosari sifatida ma’naviy va ma’rifiy masalalarga mas’ul bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy tashabbusi bilan shu davrda “Ishtirokiyun” (“Kommunist”) gazetasi chop etiladi. Nashrning bosh muharriri etib 1906-yil Rossiyadan Turkistonga kelgan va Farg‘ona vodiysidagi jadid maktablarida muallimlik qilib kelayotgan Orif Klivliyev tayinlanadi.

1918-yilga kelib, Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy faolligi ancha oshib boradi. Qisqa davr ichida zakiy Behbudiy sovetlar, kommunistlar siyosati mafkurasining noto‘g‘ri yo‘nalishda ekanini anglab yetadi. Hatto uni mahalliy xalqlar uchun zararli, degan xulosaga keladi ham. Natijada 1918-yilning oktyabr-noyabr oylarida mazkur tizim tarkibidan chiqishga qaror qiladi. Behbudiy rahbarlik qilgan sektor esa tarqatib yuboriladi.

Umidlari puchga chiqqan Behbudiy 1918-yil fevralida Turkiston muxtoriyatini tor-mor qilish uchun bolsheviklar Qo‘qonning eski shahar qismiga yashiringan muxtoriyatchilarni to‘pga tutgani va buning oqibatida o‘n minglab tinch aholi nobud bo‘lganiga guvoh bo‘lgan edi. 1919-yil yanvarida bolsheviklarga qarshi isyon ko‘targan Osipov yengilgach, askarlari bilan Toshkentdan Samarqandga qochib kelib, eski shahar qismiga yashiringani va ularni mahv etish uchun shahar to‘pga tutilishini eshitgan Behbudiyning ko‘z o‘ngida o‘sha eski va achchiq xotiralar qaytadan gavdalanadi.

Bularning barchasi to‘planib, millatparvar zotda bolsheviklarning asl qiyofasini afkor ommaga fosh etish istagini qat’iylashtiradi. Ana shu maqsadda u Parijda ish boshlagan davlatlararo sulh konferensiyasi minbaridan foydalanish uchun ikki maslakdoshi va shogirdi bilan safarga otlanadi.

Millat uchun og‘ir judolik

Behbudiy ikki nafar hamrohi bilan Buxoro amirligi hududidan o‘tmoqchi bo‘ladi. Lekin uning har bir harakatini kuzatib turgan sho‘ro hokimiyatining maxsus xizmati ularni amirlikning chegarasida qo‘lga oladi va Shahrisabzdagi qamoqqa tashlaydi.

U yerda ikki oy saqlanganidan so‘ng hamrohlari bilan birga Qarshi shahridagi qamoqxonaga olib kelinadi. Bu yerda Qarshi hokimining ko‘rsatmasi bilan Behbudiy va uning hamrohlariga o‘zlariga qabr kovlatib, jazo dahshatli tarzda amalga oshiriladi. Barchasining boshlari tanasidan judo etiladi. O‘limlaridan avval ibodat uchun ijozat so‘ragan mahkumlar namozlarini o‘qib tugatmasidanoq qatl etiladi...

Uning qatli haqidagi xabar o‘sha paytdagi poytaxt Samarqandga rosa bir yildan keyin ma’lum bo‘ladi. 1920-yilning aprelida butun Turkiston motam tutadi. Ko‘plab marsiyalar yoziladi. “Behbudiyning sag‘anasini izladim” deb atalar edi Abdurauf Fitratning bir she’ri. Sadriddin Ayniyda bir emas, uch she’r bor:

Sani mundin buyon Turon ko‘rolarmu, ko‘rolmasmu?

Saning mislingni Turkiston topolarmu, topolmasmu?

1920-yilda Qarshi shahrining nomi Behbudiy deb o‘zgartiriladi. Stalin qatag‘onlari boshlangach, ya’ni 1936-yilda uning nomi olib tashlanib, yana Qarshi nomi qaytarildi.

Jadidchilik harakatining sarvari

Behbudiyning qatli bilan Turon zaminida jadidchilik harakatiga barham berilgandek edi go‘yo. Ammo hazrati Behbudiy boshlab bergan bu ulug‘ yo‘lda aziz jonlarini garovga qo‘yib, minglab jadidlar safni to‘ldiraverdi. Ular Behbudiy g‘oyalariga xayrixoh va sodiq qolib, Turkiston xalqining, avvalo, ongu shuurini, so‘ngra vujudini ozod etmoqni lozim topdilar. Bu yo‘lda maorif va matbuotga zo‘r berdilar.

Jadidchilik harakatining sarvari boshlab bergan orzular oradan 72-yil o‘tib, o‘z ro‘yobini topdi. Bu o‘lka intiqib kutilgan istiqlolga erishdi.

Har yili 1-sentabr — Mustaqillik kuni arafasida yuraklarimizda katta iftixor va cho‘ng qayg‘u bilan Behbudiydek ota-bobolarimizni xotirlaymiz. 31-avgust — Qatag‘on qurbonlari xotirasini yod etish kuni qaror topgan asriy haqiqat va qayta tiklangan tarixiy adolat qarshisida ehtirom ko‘rsatamiz. Buyuk jadidlarimizning qoni evaziga yongan ezgulik, ozodlik nurini so‘ndirmaslik, yanada yorug‘ alangalatish uchun jon-jahdimiz bilan harakat qilishga ont ichamiz.

Otabek ISROILOV,
O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zosi

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2574.
41157 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Munojat Mo‘minova
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 21:40 Topshirildi — 22:45